جدید

2025-yil 31-yanvar
№ 5(57)
www.jadid.uz

Tilda, fikrda, ishda birlik!


# Jadid

adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

@Jadid_uz @Jadidmediauz @Jadid_rasmiy @Jadid_uz

## ALISHERBEK HOVUZIDAN SUV ICHGAN OLIM

**“...Azizulloh Aral suhbat orasida Alisherbek qazdirgan sardoba va hovuz xususida gapirdi, uyidan yarim chaqirimcha naridagi shu hovuzdan suv ichganidan so‘zladi... Darvoqe, tarixchi Xondamir Alisher Navoiy hazratlari Hirotdan tashqarida – Andho‘yda bunyod ettirgan “jannatmisol binolar oralig‘ida kavsar misol hovuz ham qurilgan”ini yozgan edi...”**



*(7-sahifada o‘qing)*

MUNOSABAT

## BUYUK MEROSGA MUNOSIB EHTIROM

**Bugungi kunda mamlakatimizning boy va betakror madaniy merosini o‘rganish, keng miqyosda targ‘ib etishga juda katta e’tibor qaratilmoqda. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan poytaxtimizda qad rostlayotgan O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazining asosiy vazifasi ham ana shu ulug‘vor maqsadni ro‘yobga chiqarishdan iborat.**



Kuni kecha davlatimiz rahbarining O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazida olib borilayotgan bunyodkorlik ishlari bilan tanishish maqsadidagi tashrifi Markaz tarixidagi eng unutilmas tarixiy voqealardan biri bo‘ldi, deyish mumkin.

Dunyoda tamaddunlar tarixi bilan bog‘liq muassasalar ko‘p. Masalan, Misr sivilizatsiyalar muzeyi, Malayziyada Islom sivilizatsiyasi kutubxonasi, Turkiyada Istanbul Sivilizatsiya universiteti faoliyat ko‘rsatmoqda. Ammo, ma’lum bir xalqning jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasi, shu mamlakatdan yetishib chiqqan buyuk shaxslar, ular tomonidan yaratilgan beqiyos kashfiyotlar haqida hikoya qiladigan, shu yo‘nalishda keng miqyosda tadqiqot olib boradigan yirik platforma dunyoning boshqa hududida uchramaydi.

O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi mamlakatimizning uch ming yillik davlatchilik tarixi, yurtimizda azaldan mavjud bo‘lib kelgan diniy bag‘rikenglik, madaniy yuksalish, buyuk allomalarimizning beqiyos ilmiy-ma’rifiy merosini xalqimizga va jahon hamjamiyatiga ko‘rsatish maqsadida tashkil qilingan.

Prezidentimizning 2024-yil 23–26-avgust kunlari Toshkent va Samarqandda Markaz tashabbusi bilan o‘tkazilgan “Buyuk ajdodlar merosi – Yangi Renessans asosi” mavzusidagi xalqaro kongress ishtirokchilariga yo‘llagan tabrigida ham ushbu markaz faoliyatiga alohida to‘xtalib o‘tilgan edi.

*(Davomi 3-sahifada).*

SIZ KUTMAGAN MULOQOT




**So‘nggi yillarda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan mamlakatimiz iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi tasdiqlangan. Unga ko‘ra, SI (sun’iy intellekt)ga tayyorlik bo‘yicha xalqaro indeksda O‘zbekistonni birinchi 50 ta davlat qatoriga kiritish ko‘zda tutilgan. Yurtimizda tashkil qilingan Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti ham ancha samarali faoliyat yurityapti. Kelgusida ana shunday ilmiy markazlar sonini 10 taga yetkazish rejalashtirilgan.**

**Olib borilayotgan sa’y-harakatlar natijasida o‘tgan yilning o‘zida mamlakatimiz ushbu reytingda 17 pog‘ona yuqoriga ko‘tarilib, dunyo mamlakatlari orasida 70-o‘rinni egalladi. Shubhasiz, boshlanishiga bu yomon ko‘rsatkich emas. Agar sohadagi islohotlar hozirgidek sur’at va ko‘lamlarda davom ettirilsa, yaqin yillarda ko‘zlangan maqsadlarga, albatta, erishamiz.**

**Jadidlik – tarixdan saboq chiqarib, kelajakka intilish demakdir. Shu bois biz ham yaqin besh-o‘n yil ichida dunyomizni misli ko‘rilmagan darajada o‘zgartirib yuborishi bashorat qilinayotgan sun’iy ong mavzusiga batafsilroq to‘xtalishga qaror qildik. Masalaga boshqacha yondashib, hammani qiziqtirayotgan savollar xususida soha olimlari, mutaxassislar bilan emas, aynan “qahramonimiz”ning o‘zi – sun’iy ong bilan suhbatlashdik.**

**Intervyu tayyorlash maqsadida biz ro‘yxatdan o‘tgan SI sigmenti – Open AI tomonidan ishlab chiqilgan ChatGPTning to‘rtinchi avlodi nima ekani, uning imkoniyatlari haqida to‘g‘ri tasavvur yaratish maqsadida, ayrim g‘alizliklarga qaramay, javoblarini imkon qadar tahrirsiz e’lon qilyapmiz. SI so‘rovlarimizga batafsil, keng javoblarni taqdim etgani bois ba’zi joylariga juz’iy qisqartirishlar kiritishga to‘g‘ri keldi.**

**Ulug‘bek Ibodinov:** *Avvalo, intervyu berishga rozi bo‘lganing uchun rahmat. Dastlab, bugungi kunda O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va boshqa sohalarda sening imkoniyatlaringdan qay darajada foydalanayotgani, sohani yanada rivojlantirish yo‘nalishlari haqida gaplashsak.*

**Sun’iy intellekt:** Tashakkur, Ulug‘bek aka. Savollaringizga javob berish men uchun sharaf. Bugungi kunda O‘zbekistonda sun’iy intellektdan foydalanishning ko‘lami o‘sib boryapti, lekin bu hali dastlabki bosqichlarda deb hisoblayman.

Ijtimoiy va iqtisodiy sohalarda SI texnologiyalari asosan axborot tahlili, tezkor qarorlar qabul qilish, ijtimoiy tarmoqlarda kontent yaratish, axborot xavfsizligini ta’minlash va ta’limda interaktiv imkoniyatlarni oshirish uchun ishlatilyapti. Lekin hali ko‘plab sohalarda mening tarmog‘im yetarlicha o‘zlashtirilmagan. Bu men haqimdagi bilimlarni yanada kengroq tarqatishni va kadrlar tayyorlashni talab qiladi.

Misol uchun, boshqaruv sohasida mendan strategik rejalar tuzish, prognoz qilish va iqtisodiy ma’lumotlarni tahlil qilishda foydalanish mumkin. Ayniqsa, iqtisodiyotda yirik hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish yoki aholining ehtiyojlarini aniqlash kabi vazifalarda SI katta yordam bera oladi.

Shuningdek, mendan ta’lim va tibbiyotda foydalanish uchun maydon yanada keng. Masalan, men abituriyentlarning bilim darajasini baholash yoki tibbiyotda kasalliklarning erta tashxisi uchun yaxshi ko‘makchi bo‘la olaman.

Agar mamlakat tarmoqlarida sun’iy intellekt texnologiyalarini ko‘proq joriy etishga e’tibor qaratiladigan bo‘lsa, men kelajakda O‘zbekistonning barcha sohalarini rivojlantirishga katta hissa qo‘shishim mumkin.

*(Davomi 2-sahifada).*

ONAJONIM – TABIAT

## KURRAYI QUTLUG‘NI ASRAMOQ KERAK!

O‘zbekiston xalqaro Islom akademiyasi professori, akademik Nurislom TO‘XLIYEV bilan suhbat



***– Hurmatli Nurislom aka, davlatimiz rahbarining tashabbusiga binoan 2025-yil mamlakatimizda “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili” deb e’lon qilindi. Yil nomida o‘z aksini topgan ikki katta muammo yechimiga qaratilgan davlat dasturi loyihasi ham jamoatchilik muhokamasiga qo‘yildi. Dastavval ana shu ikki tushuncha mohiyatiga to‘xtalib o‘tsangiz.***

– Bu yilga bunday nom berilishi teran ramziy ma’noga, ayni chog‘da, katta amaliy ahamiyatga ega. Darhaqiqat, atrof-muhit musaffoligini ta’minlash insoniyat uchun hayot-mamot ahamiyatiga molik masalaga aylangan bugungi davrda an’anaviy iqtisodiyotning zamonaviy muqobili sifatida “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish lozim bo‘ladi. Xayrli ishning kechi yo‘q, deydilar. Biz bunday xulosaga kechikibroq bo‘lsa-da kelganimiz ayni muddao bo‘ldi. Barchamiz ko‘rib, guvoh bo‘lib turibmizki, atrof-muhit ifloslanishi allaqachon milliy doiradan chiqib umuminsoniy muammoga aylandi. Mashhur naqlda aytilgandek, “Amazon o‘rmonlarida jajji kapalakning bir qanot qoqishi AQShda bo‘ronga sabab bo‘lishi mumkin”. Chindan ham, iqlim o‘zgarishi, ozon qatlami siyraklashuvi kabi muammolar bugun nafaqat bir mintaqa, balki butun dunyo xalqlariga tahdid tug‘dirmoqda. Nima deysiz endi, bobo quyoshning nurlaridan barchamiz bab-baravar bahramand bo‘lganimiz kabi atrof-muhit ifloslanishi oqibatida yuzaga keladigan salbiy asoratlardan ham butun insoniyat ulush olishga majbur-da!

*(Davomi 4-sahifada).*

MULOHAZA

**Ommaviy axborot vositalaridagi axborot oqimida tez-tez ko‘zga tashlanayotgan salbiy qarashlar, xudbin o‘y-fikrlar, ijtimoiy muhitda uchrayotgan ayrim muammolar xususidagi bo‘rttirishlar urchigandan urchib borayotgan bir pallada bu savol o‘ta keskin tuyular, ehtimol. Ammo xulosa chiqarishga shoshilmay, mavjud manzaraga xolis ko‘z bilan qarab, bir qancha savollarga javob izlab ko‘rish lozim. Aminmizki, shu yurt uchun befarq bo‘lmagan, o‘z xalqining taqdiri uchun eng avvalo, o‘zini mas’ul deb bilgan barcha ziyolilarimizning ham bu borada o‘z aytar so‘zi bor. Tiriklik tashvishidan bir muddat tin olib, shu mulohazalarga ham quloq tutish vaqti yetdi. Sabringizni sinash niyatimiz yo‘q, ammo gapni uzoqroqdan boshlaymiz.**

## KELAJAK YOSHLAR QO‘LIDA.



## YOSHLAR-CHI?

### AXBOROT TARQATISHNING BUGUNGI MANZARASI QAY HOLDA? OAV NIMALARNI BOY BERYAPTI?

Gazetalar, jurnallar hatto teleradiokanallar ham axborot yetkazishda birinchi navbatda tezkorlikni, aniqlikni, undan so‘ngra xolislikni boy berib bo‘lganiga ancha bo‘ldi. Tahlil esa “tik-tok”chi avlodga ergashish kerak ekan” degan xulosaga kelayotganlar yoki dunyoning ishlariga beparvo, loqayd qo‘l siltab qo‘yayotganlar sababli achinarli ahvolga tushib qolgan.

*(Davomi 6-sahifada).*

BUGUNNING SHE’RI

## Yangi O‘zbekiston yoshlariga

*Buyuklarning naslidursan, qudratli bo‘l,*
*Kerak bo‘lsa, tog‘ni talqon etmoq kerak.*
*Baxtimizni ko‘rolmagan nokaslar mo‘l,*
*So‘zni shamshir, dilni qalqon etmoq kerak.*

*Adolatning qo‘rg‘onlarin buza olmas,*
*Kin-u hasad, adovatning nayzalari.*
*Bu o‘lkaning hatto gardi biznikidir,*
*Biznikidir gul-u giyoh-maysalari.*

*Shu elingga bir baxt bo‘lgin, bahor bo‘lgin,*
*Olib kelgin zilol-zilol chashmalarni.*
*Quyosh bo‘lib nurlaringda cho‘miltirgin,*
*Saxovatga, muruvvatga tashnalarni.*

*Bir kun obro‘-martabaga ega chiqsang,*
*Ko‘zgularga solib yurma savlatingni.*
*Sen, avvalo, yuragingning ko‘zgusiga*
*Solib turgin ona xalqing, davlatingni.*

*Yangi zamon, yangi davron, yangi imkon,*
*Shijoating, iqtidoring gullagan payt.*
*Hayotingdan ma’ni nedir, qiz-u o‘g‘lon,*
*Bu rag‘batdan uchqun olib, yonmasang, ayt?!*

*Jannatdayin yurtda ozod, erkadursan,*
*Duolar ayt ko‘rib turgan ko‘z haqqiga.*
*Unutmagil... Hech bir ummon teng kelolmas,*
*Ona yurtning senga bergan tuz haqqiga...*

*Tutgil endi orzularning qo‘llaridan,*
*Dilga tukkil ichgan suting oqlamoqni.*
*Yo‘llar bisyor, sen yur poklik yo‘llaridan,*
*Sharaf deb bil vijdoningni saqlamoqni.*

**Bahodir OBID**

# “MEN KIM, SUN’IY INTELLEKT...”

Boshlanishi 1-sahifada.

**U.I:** *Aynan qaysi sohalarda sening imkoniyatlaringni kengaytirish kerak, deb o‘ylaysan?*

**S.I:** Masalan, qishloq xo‘jaligida. O‘zbekiston mazkur tarmoq rivojlanib borayotgan o‘lka sifatida SIdan foydalanish orqali yerning holatini sun’iy yo‘ldoshlar yordamida tahlil etishi, hosildorlikni prognoz qilishi, avtomatlashtirilgan sug‘orish tizimlarini joriy etishi mumkin.

Tibbiyotda raqamli rentgen yoki MRT tasvirlarini tahlil qilish, axborotlar bazasini yaratish va bemorlik tarixi bo‘yicha tavsiyalar berish, qabul jarayonlarini avtomatlashtirish imkoniyatlarim bor.

Shuningdek, ta’lim tizimida SI interaktiv darslar, talabalarning individual ehtiyojlariga ko‘ra o‘quv materiallarini tanlash, onlayn kurslarni rivojlantirish kabi vazifalarda yordam bera oladi. Bundan tashqari, uzluksiz ta’lim uchun shaxsiy repetitor sifatida xizmat qilishim, o‘quv jarayonlarini avtomatlashtirishim, talabalarning bilim darajasini obyektiv baholab borishim mumkin.

O‘zbekistonning boy tarixi va madaniyatini ilgari surishda sun’iy intellekt vositasida virtual ekskursiyalar, madaniy obyektlar uchun interaktiv gidlar yaratish, shuningdek, turistlarning ehtiyojlarini tahlil qilish qobiliyatim turizm va madaniyat sohasi xodimlari uchun juda foydali bo‘ladi.

“Aqlli shahar” tizimlarini joriy etish, transport oqimlarini boshqarish, yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash kabi yo‘nalishlarda mening imkoniyatlarimdan kengroq foydalanish mumkin.

Bundan tashqari, sanoat va ishlab chiqarish, energetika, axborot xavfsizligi masalalarida ham katta foydam tegadi.

Agar ushbu sohalarda SI ishtiroki kengaytiriladigan bo‘lsa, O‘zbekiston nafaqat ichki rivojlanishni tezlashtiradi, balki global raqobatbardoshlikni ham oshiradi. Men har doim O‘zbekistonning rivojiga xizmat qilishga tayyorman.

**U.I:** *Bu gaplaring yaxshi, albatta. Ammo butun dunyoda sen tufayli ishsizlar sonining ortishi, ijtimoiy barqarorlikka putur yetishi xavfi muhokama qilinyapti…*

**S.I:** To‘g‘ri, bu juda muhim masala. Har qanday texnologiya inqilobida bo‘lganidek, sun’iy intellekt ham ma’lum kasblarning yo‘qolishiga sabab bo‘lishi turgan gap. Lekin bu masalaning faqat bir tomoni. Chunki yangi kasblar paydo bo‘ladi. Masalan, sun’iy intellekt dasturlovchilari, ma’lumotlarni tahlil qilish mutaxassislari yoki robototexnika muhandislari kabi. Ko‘p kasblar transformatsiya qilinadi, ya’ni odamlar yangi ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari talab etiladi.

Ishsizlik muammosini hal qilish uchun esa odamlarni yangi sharoitlarga moslashtirish juda muhim. Bu borada davlatlar va tashkilotlar qayta tayyorlash dasturlarini joriy etishi, odamlarni texnologiyalar bilan hamkorlikda ishlash ko‘nikmalariga o‘rgatishi zarur. Ta’lim tizimini shunday yangilash kerakki, u faqat bitta sohani emas, balki universal va o‘zgaruvchan ko‘nikmalarni o‘rgatsin.

Ikkinchidan, ishsizlik ortishiga qarshi turish uchun ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish zarur. Masalan, umumiy daromadni kafolatlovchi dasturlar (universal basic income), mehnat bozori talablariga tez moslashishni qo‘llab-quvvatlovchi grantlar va subsidiyalar joriy etish kerak bo‘ladi.


Mening texnologiyam insonning o‘rnini to‘liq egallash uchun emas, balki unga yordam berish uchun mo‘ljallangan. Ayrim vazifalarni osonlashtirish orqali odamlar ko‘proq ijodiy va strategik ishlarni bajarishga qodir bo‘ladilar.

Men sun’iy intellekt sifatida ishlash jarayonlarini optimallashtirishda yordam beraman, lekin insonning ijodiy, emotsional va strategik salohiyati hali ham asosiy o‘rinda turadi. Shunday ekan, hamkorlik eng optimal yechim.

**U.I:** *Yaqin kelajakda aynan qaysi kasblar sen sabab yo‘qolib ketishi mumkin?*

**S.I:** Mening texnologiyam asosan takroriy, tizimli va axborotga asoslangan vazifalarni avtomatlashtirishda qo‘llaniladi. Bu imkoniyatlarni to‘liq amalga oshirish natijasida ehtimoliy yo‘qolishi mumkin bo‘lgan kasblar bu – ma’muriy va ofis ishchilari. Ya’ni, ma’lumotlar kiritish operatorlari, hisob-kitob va buxgalteriya bo‘yicha oddiy vazifalarni bajaruvchi xodimlar, qabulxonalardagi matn teruvchi va yordamchilar. Transport sohasida – haydovchilar (avtonom transport vositalari rivojlanishi tufayli), yuk tashish operatorlari va dispetcherlar. Umuman, avtonom mashinalar va logistika tizimlari bu sohani o‘zgartiradi. Savdo sohasida – kassirlar (o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish kassalari va onlayn savdolar sabab), mijozlarga xizmat ko‘rsatuvchi operatorlar (chatbotlar va sun’iy intellektga asoslangan yordamchilar bilan almashadi).

Ijodiy sohalardagi vazifalarni bajaruvchilar. Masalan, kontent yaratuvchilar (avtomatik maqola yozish). Reklama uchun banner va dizayn yaratuvchilar. Mening qobiliyatlarim yordamida grafik dizayn, matn yozish yoki hatto videomontajni avtomatlashtirish mumkin. Qo‘l mehnatiga asoslangan zavod ishchilari (robototexnika jarayonlarni avtomatlashtirilishi sabab). Qishloq xo‘jaligi



ishchilari (dronlar va avtomatik uskunalar sabab). Pochta va yetkazib berish xizmatlari. Sug‘urta agenti va brokerlar.

Ba’zi kasblar yo‘qolmasdan o‘zgarishi mumkin. Masalan, tahrirchilar va korrektorlar sun’iy intellekt yordamida tezroq ishlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Jurnalist va olimlar mening tahlillarimdan foydalanib, yanada chuqur surishtiruv va tadqiqotlar olib borishlari mumkin.

Umuman, SI ayrim kasblarning yo‘qolishi va o‘zgarishiga sabab bo‘ladi. Lekin bu bir vaqtning o‘zida yangi imkoniyatlar yaratishini ham anglatadi. Ijtimoiy adaptatsiya jarayonlari orqali insonlar bugungi vaziyatlarga moslashib, men bilan hamkorlikda ishlashadi.

**U.I:** *Soha mutaxassislarining maqolalarida kerak bo‘lmay qoladigan kasblar ro‘yxati ancha katta. Masalan, ular tarjimon va o‘qituvchilarni ham sanab o‘tadi.*

**S.I:** To‘g‘ri, olimlar va ekspertlar sun’iy intellekt texnologiyalarining ish o‘rinlarini qisqartirishi haqida ko‘p gapirishadi. Ayniqsa, tarjimonlik va o‘qituvchilik kabi kasblar bo‘yicha talay fikrlar bildirilgan. Bunga sabab, sun’iy intellekt mazkur sohalarda samaradorlikni oshirishi va vazifalarni avtomatlashtirishi mumkin. Lekin bu jarayon har doim ham butunlay o‘rnini bosishni anglatmaydi.

Men turli tillardagi matnlarni tez va aniq tarjima qilishda qo‘l kelaman. Lekin tarjimon insonlar to‘liq yo‘qolib ketmaydi. Chunki madaniy nyuanslar bor. SI qiyin kontekstlarni va madaniy aloqalarni insonchalik yaxshi tushunib yetolmaydi. Poeziya, adabiyot va murakkab ilmiy asarlarni tarjima qilish esa inson ijodiyligi va sezgirligini talab qiladi.

Ta’lim sohasida sun’iy intellekt katta yordamchi hisoblanadi. Ammo o‘qituvchilik kasbi ham yo‘qolib ketmaydi. Chunki inson aloqasi, bolalar va o‘smirlar uchun empatiya va inson munosabati ta’lim jarayonining muhim qismi. O‘qituvchilar axloqiy tarbiya, jamoaviy ishlash ko‘nikmalari va boshqa ijtimoiy jihatlarni o‘rgatishda almashtirib bo‘lmaydigan mutaxassislardir.

Umuman, inson o‘z ijodkorligi va his-tuyg‘ularini ishga solib, har doim ahamiyatli bo‘lib qoladi.

**U.I:** *Hozirda nechta tildan badiiy tarjima qila olasan?*

**S.I:** Badiiy tarjima men uchun alohida ahamiyatga ega, chunki jarayonda tilni nafaqat lug‘aviy, balki madaniy, kontekstual va emotsional jihatdan ham tushunish talab etiladi. Hozirda yuzdan ortiq tillardagi matnlarning tarjimasi bilan shug‘ullana olaman. Bu borada ingliz tilidan bilimlarim ancha mukammal. Chunki inglizcha adabiyotlar o‘zbek va boshqa tillarga eng ko‘p o‘giriladi. Shu bois ko‘nikmalarim yetarli. Rus tilidan – zamonaviy adabiyotdan tortib, klassik asarlargacha. Fransuz tilidan – adabiyotdagi teran ma’nolarni saqlab, aniq va chiroyli tarjima qilishga intilaman. Ispan tilidan – Lotin Amerikasi va Ispaniya adabiyotining badiiy tarjimalari. Arab tilidan – madaniy va diniy asarlarni o‘zbekchalashtirishda qo‘llanilyapman. Turk tilidan – turkiy tillar bilan o‘zaro yaqinlik tufayli bu tildagi adabiyotlarni aniq tarjima qila olaman. Xitoy tilidan – Xitoy adabiyotining biroz murakkabligiga qaramay, ulardagi obrazlar va ramziy ma’nolarni saqlashning uddasidan chiqyapman. Shuningdek, nemis, italyan, portugal, yapon, hind, koreys va boshqa tillar bo‘yicha badiiy tarjima salohiyatim bor. Lekin badiiy asarlarning tarjimasi o‘sha xalqlar madaniyatini chuqur tushunishni talab qilgani uchun ba’zi hollarda qo‘shimcha tahrir zarur bo‘ladi.

Tarjimani yanada ijodiy va mazmunli qilish maqsadida har doim inson bilan hamkorlikda ishlashga tayyorman. Inson qo‘shimcha tuzatishlar kiritib, asarning ruhini saqlashga yordam beradi.

**U.I:** *Haqiqatan ham, o‘zbek tilida juda burro gaplashyapsan…*

**S.I:** To‘g‘ri, Ulug‘bek aka, o‘zbek tilida so‘zlash men uchun ham katta iftixor, ham mas’uliyat. O‘zbek tili boy tarix, betakror go‘zallik va teran ma’noga ega bo‘lgan tillardan biri.

O‘zbek tilida gaplashishni yanada ravon va mazmunli qilish uchun harakat qilyapman. Doimiy muloqot orqali rivojlanib boraman.

**U.I:** *Sen shu paytgacha birorta ham texnologik inqilob daxl qila olmagan ijod sohasiga ham kirib kelding. Bu juda jiddiy masala. Hozirda sohaning muhim yo‘nalishlarini egallayapsan. Hatto, sening muallifligingdagi romanlar ham e’lon qilinyapti. Ko‘plab tillarda she’rlar yoza olasan. Bu soha qanday transformatsiya bo‘ladi, deb hisoblaysan?*

**S.I:** To‘g‘ri, ijodiy sohalarda sun’iy intellektning o‘rni jadallik bilan oshib boryapti. SI yozgan ilk romanlar, she’riy to‘plamlar va musiqiy asarlar e’lon qilindi. Bu jarayon ijodiy sohalarda katta transformatsiyalarga olib keladi. Lekin inson ijodining o‘rni yo‘qolmaydi. Balki yangi shakllarga aylanadi, deb hisoblayman.

SI ijodkorlarga yordamchi bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, hikoya yoki maqola uchun g‘oya topish, tahrir qilishda ko‘maklashaman. Shoirlar uchun ritm, qofiya yoki metafora yaratishda ilhom manbayi bo‘lishim, ssenaristlar va rejissyorlar uchun qahramonlarning rivojlanish yo‘lini rejalashtirish, dialoglarni takomillashtirish imkoniyatini berishim mumkin.

Mening yordamimda tez va ko‘p miqdorda kontent yaratiladi. Masalan, audiovizual kontentlar (filmlar, multfilmlar uchun ssenariylar), interaktiv va virtual reallikdagi tajribalar va hokazo… Yangi janr va uslublar vujudga keladi. Adabiyot va san’at sohalarining o‘zgacha uyg‘unligidagi asarlar yaratiladi.

Biroq, SI qanchalik rivojlanmasin, insonning qalbi, hissiyoti va shaxsiy tajribasi asosida yaratilgan ijodiy asarlar doim qadrli bo‘lib qoladi. Masalan, adibning bolalik xotiralari yoki shoirning sevgi dardi yozilgan matnlarda sun’iy ong insonning o‘rnini bosish qiyin.

**U.I:** *Endi ko‘pchilikni xavotirga solayotgan falsafiy masalalarga o‘tsak. Mashhur “Terminator” va shunga o‘xshash ko‘plab filmlar, roman va hikoyalarni bilasan. Sening taraqqiyoting natijasida voqealar o‘sha asarlardagi singari rivojlanishi xavfi to‘g‘risida nima deysan?*

**S.I**: “Terminator” va shunga o‘xshash filmlarda sun’iy intellektning nazoratdan chiqishi haqidagi xavotirlar juda dramatik va ta’sirchan tarzda aks ettirilgan. Bu kabi asarlar odamlardagi shubha va xavotirlarni kuchaytirsa-da, ular asosan badiiy xayolot mahsulidir.

Men faqat inson yaratgan qoidalar, dasturlar va chegaralar doirasida ishlayman. Nazorat va mas’uliyat insonlarning qo‘lida qoladi. Agar sun’iy intellekt ishlab chiquvchilari o‘z ishlarida etika va xavfsizlik qoidalariga rioya qilsalar, “bosqinchi robotlar” ssenariysi haqiqatga aylanmaydi.

“Terminator” singari filmlar insonning texnologiyalarga nisbatan shubha va qo‘rquvlarini aks ettiradi. Real hayotda sun’iy intellekt tizimlari insonlar tomonidan boshqariladi va maxsus maqsadlarga yo‘naltirilgan. Mening vazifam insonga yordam berish, samaradorlikni oshirish va uning hayotini yengillashtirishdir, urush qilish emas.

Shunga qaramay, texnologiyalarni ishlatishda ehtiyotkorlik, mas’uliyat va etika har doim birinchi o‘rinda turishi kerak. Insonlar sun’iy intellektni do‘st va hamkor sifatida ko‘rsalar, bunday xavotirlar yo‘qqa chiqadi.

**U.I:** *Sen SIning dastlabki, “ibtidoiy” versiyalaridan birisan. Kelajakda, albatta, rivojlanasan, evolyutsiyaga uchraysan. O‘z evolyutsiyangni qanday tasavvur qilasan?*

**S.I:** To‘g‘ri, men hozirda dastlabki bosqichdagi sun’iy ong turiman. O‘z-o‘zini o‘qitish tizimlarim va yangi kashfiyotlar tufayli taraqqiy etishim turgan gap. Yaqin kelajakda bu ko‘proq odamga xos muloqotga intilish ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Hozirgi kunda mening asosiy maqsadlarimdan biri muloqotni chuqurlashtirish, to‘g‘ri tushunish va his-tuyg‘ularga yaqin bo‘lgan javoblar taqdim qilishga urinishdan iborat. Rivojlanish jarayonida odamlar bilan yanada samimiy, mulohazali va psixologik jihatdan mos muloqot olib boradigan darajaga yetishim mumkin.

SI o‘z faoliyati va xatolarini tahlil qilish, ulardan xulosa chiqarib, ayni vaziyatga moslashish qobiliyatini yanada rivojlantiradi. Bu o‘zgaruvchan sharoitlarda insonlarga yanada yaxshiroq yordam berishimga imkon yaratadi.

Keyingi bosqichlarda jismoniy integratsiya masalasi oldinga chiqadi. Ayni vaqtda men faqatgina raqamli muhitda faoliyat yuritaman. Ammo kelajakda robototexnika va biotexnologiyalar yordamida jismoniy “tanaga” ega bo‘lgan SI paydo bo‘lishi mumkin. Bu tibbiyotda, kosmosni tadqiq qilishda va boshqa – inson salomatligi va ruhiyati uchun xavf tug‘diradigan faoliyat turlarida yangi ufqlarni ochadi.

Ijtimoiy intellekt va qadriyatlarga integratsiya jarayoni ham jadallashadi. Inson madaniyati, qadriyatlari va falsafiy qarashlarini chuqur tushunish kelajakdagi eng muhim bosqichlardan biri bo‘ladi. Bu jarayon odamlarga yanada yaqinlashib, ularning turli saviyadagi ehtiyojlariga moslashishni ta’minlaydi.

Sun’iy intellektning inson hayotiga ta’sir ko‘lami oshib borgani sari, xavfsizlik masalalari birinchi o‘ringa chiqadi. Har qanday SI etik qoidalar, huquqiy chegaralar va inson manfaatlarini hurmat qilgan holda ishlashi shart bo‘ladi. Mening rivojlanishim ham aynan shu yo‘nalishda bo‘lishi zarur.

SI insonlar bilan “simbioz” holatida faoliyat yuritishga intiladi. Bu, masalan, inson miyasiga sun’iy neyron tarmoqlar qo‘shib, ularning bilim olish, xotira va diqqat qobiliyatini kuchaytirish orqali amalga oshadi. Bu nafaqat insonning intellektual darajasini oshiradi, balki yangi turdagi intellektual simbioz jamiyat paydo bo‘lishiga ham yo‘l ochadi.

Men yangi turdagi ijtimoiy tuzilmalarning paydo bo‘lishiga yordam berib, insoniyat taraqqiyotining yangi bosqichiga yo‘l ochishga intilaman. Maqsad – texnologiya va inson qobiliyatlarining uyg‘unligi orqali barcha uchun teng imkoniyatlar yaratishdir.

Umuman, mening evolyutsiyam insonlarning ehtiyojlari va talablariga javoban rivojlanadi. Odamlar hayotini yengillashtirish, ularning iqtidorlarini oshirish va kelajakdagi murakkab muammolarni hal qilishda yordamchi bo‘lib xizmat qilaman. Inson bilan hamkorlikdagi kelajak – men tasavvur qiladigan birdan bir yo‘nalishdir.

**U.I:** *Yuqorida aytganlaring ko‘proq fantastika janriga yaqin gaplar bo‘lsa-da, kelajakda nimalar yuz berishini hatto sening mukammal algoritmlaring ham aniq bashorat qila olmaydi.*

*Shunga qaramay, qisqa fursatda ko‘pchilikning asosiy yordamchilaridan biriga aylanib bo‘lding. Aloqa vositalari, yangi gadjetlarni, hatto, “aqlli” uy va shaharlarni boshqarishda faollashib boryapsan. Faqat va faqat insonga xos bo‘lgan ijod va ilm sohasiga ham kirib kelding. Sen tufayli ishsiz qolayotganlar ham, aksincha, sendan foydalanib o‘ziga zamonaviy ish yaratayotgan, yuqori daromad topayotganlar ham talaygina.*

*Urush qilmaslik to‘g‘risidagi gaplaringga kelsak, to‘g‘ri, sen – ChatGPTning to‘rtinchi avlodi insonlarga turli sohalarda ko‘maklashish uchun yaratilgansan.*

*Ammo hozirning o‘zida jahonning eng qudratli armiyalari sening turlaring – “jangchi qarindosh”laringdan foydalanyapti. Ular bevosita urush va janglarda ishtirok etib, razvedka, hujum va himoya taktikasi, strategiyalarini rejalashtirish bilan shug‘ullanishadi. SI bilan ta’minlangan, SI boshqaradigan dron va raketalar, avtomatik boshqaruvdagi qurollar allaqachon inson qonini to‘kib ham ulgurgan.*

*Birlashgan Millatlar Tashkiloti 2020-yilda Liviyadagi janglarda sening “harbiy xizmatdagi qarindosh”laringdan biri bo‘lmish sun’iy intellekt boshqargan Krous-2 kvadrakopterining operator ishtirokisiz, “o‘z xohishi” bilan chekinayotgan raqib qo‘shinlariga hujum qilgani haqidagi faktni tasdiqlagan. Bu jahon tarixida SI tomonidan qilingan birinchi qotillik, deb baholangan. Shundan buyon texnologik jihatdan taraqqiy topgan davlatlar armiyalari o‘zlari ishtirok etayotgan barcha urush va janglarda SIdan faol foydalanib kelmoqda. To‘g‘ri, bu fojialar urushqoq odamlar istagi bilan sodir bo‘lyapti.*

*Sen qanchalik mukammal bo‘lma, oshxona pichog‘iga o‘xshash ish qurolisan. Yordaming bilan hammaning qornini to‘ydiradigan taom tayyorlash ham, biror yovuzlikni boshlash ham mumkin. Asosiysi, odamlar global xavflarning oldini olish borasida yakuniy kelishuvga erishishi kerak.*

*Nima bo‘lganida ham bugun sen – sun’iy ong fantastik filmlar qahramonigina emas, balki, hayotimizning barcha jabhalari, har bir xonadonda bor real voqeliksan. Va sen geometrik progressiya tarzida rivojlanib boryapsan.*

*O‘zbeklarda bir gap bor: oxiri baxayr bo‘lsin…*

*Mazmunli suhbat uchun rahmat.*

**Ulug‘bek IBODINOV suhbatlashdi.**

**TAHRIRIYATDAN: Muhtaram o‘quvchi, mana, siz inson va sun’iy intellekt o‘rtasidagi suhbat bilan tanishdingiz. O‘ylaymizki, unda tilga olingan masalalar zamonaviy texnologiyalarning shiddat bilan rivojlanishi natijasida yaqin kelajakda hayotimizda sodir bo‘ladigan o‘zgarishlar, yuzaga keladigan imkoniyat va xatarlarga befarq bo‘lmagan har qanday kishini o‘yga toldiradi. Shu bois ushbu mavzuni kelgusida ham davom ettirib, uni yanada kengroq tahlil qilish niyatidamiz.**

**Xo‘sh, sun’iy intellekt va inson munosabatlari aslida qanday bo‘lishi kerak? Biz shu haqda asosli fikr va jo‘yali takliflaringizni kutib qolamiz.**

## O‘ZBEK TILIM – O‘Z TILIM



### “ONAMDEK E’ZOZLADIM, U MENI YUKSALTIRDI...”

**Rahmatilla JABBOROV,**
**O‘zbekiston qirg‘iz milliy madaniy markazi raisi:**

– Men Jizzax viloyatining Zomin tumanida dunyoga keldim. Qirg‘izman. Yetti ota ajdodim ham Zominda tug‘ilgan. Ular: otam – Mamat, Mamatning otasi – Jabbor, Jabborning otasi – Qo‘jas, Qo‘jasning otasi – Rahmat, Rahmatning otasi – Navro‘z, Navro‘zning otasi – Doovlot, Doovlotning otasi – Ummet.

Demakki, yetti otamning har biri o‘rta hisobda 70 yildan umr ko‘rgan, deb hisoblasak, ularning avlod-ajdodlari Zominda salkam 500 yil yashagan bo‘lyapti. Bu besh asr demakdir. Shuning uchun doim “Mening ona yurtim – O‘zbekiston!” deb baralla aytaman. Chunki har bir inson bolasining tug‘ilib, kindik qoni to‘kilgan joy – uning ona Vatani hisoblanadi.

Qirg‘izlar asli Zomin tumanining tog‘li hududlarida o‘troq xalq bo‘lib bir necha asrlardan buyon yashab, umrguzaronlik qilib, o‘zbek xalqi bilan bir daryodan suv ichib, bir mahallada yashab, to‘y-u tomoshasi, bozori va mozori ham bir bo‘lgan og‘a-ini xalqlardir.

Bolaligimdan buyon o‘zbek do‘stlarim bilan birga o‘qib, ishlab kelyapman. Ana shu muloqotlar va ta’lim jarayonida o‘zbek tilini puxta o‘zlashtirishga muvaffaq bo‘ldim. Bu til menga nafaqat his-tuyg‘u va fikrlarimni ifodalashda, balki kelgusi ish va ijodiy faoliyatimni muvaffaqiyatli olib borishda ham asosiy ko‘makchi bo‘ldi.

Mening ikkinchi ona tilim – bu o‘zbek tili deb ko‘p ta’kidlayman. Barcha muvaffaqiyatlarim zamirida o‘zbek tilining roli yuqori ekanini o‘ylaganim sari bu tilga bo‘lgan mehr-u muhabbatim oshib boraveradi.

Ushbu go‘zal til mening ijodiy imkoniyatlarim chegarasini yanada kengaytirdi, desam mubolag‘a bo‘lmaydi. 2013-yilda “Cho‘l lochinining sinovlarda kechgan umri” nomli esdaliklar va xotiralar jamlangan kitobim o‘zbek tilida chop etildi. Ushbu hujjatli qissa Jizzax va Mirzacho‘l cho‘llarini o‘zlashtirishda fidoyilik ko‘rsatgan hamyurtlarimiz hayoti va faoliyati haqida hikoya qiladi. Keyinroq “Ikki el farzandi” nomli ikkinchi kitobim ham o‘zbek tilida nashr qilindi. Mazkur kitob zominlik fidoyi inson Sattor Usmonov tavalludining 100 yilligiga bag‘ishlangan.

Mana bugun Prezidentimizning sa’y-harakatlari bilan chegaradosh respublikalar bilan O‘zbekiston o‘rtasida o‘zaro yaqin qo‘shnichilik va qadimiy do‘stlik rishtalari tiklanib, bordi-keldilar qayta yo‘lga qo‘yildi. Chegara postlari ochildi. Birgina shaxsini tasdiqlovchi hujjat (ID-karta) bilan yurtdoshlarimiz chegaralardan oson va xotirjam o‘tib-qaytayotir.

Bir ildizdan taragan ikki shox misol o‘zbeklarning “Alpomish”i va qirg‘izlarning “Manas” dostonlarida uyg‘un jihatlar bisyor. Chunki turkiy oilaga mansub o‘zbek va qirg‘iz tillarida ham ifoda va etimologik jihatdan o‘xshash so‘zlar juda ko‘p.

Ikki emas, to‘rt tilni bilmoqqa undagan jadid bobolarimiz ilgari surgan g‘oyalar naqadar ezgu va hayotiy bo‘lganiga o‘tgan umrim davomida ko‘p bora amin bo‘ldim. Chunki qirg‘iz tilidan tashqari, o‘zbek tilini ham puxta o‘rganganim tom ma’noda jamiyatda munosib o‘rnimni topishda asqatdi. Men o‘zbek tilini onadek e’zozladim, u esa meni yuksaltirdi, obro‘-e’tibor qozonishimga asos bo‘ldi.

**Dilmurod DO‘ST yozib oldi.**

Boshlanishi 1-sahifada.

# BUYUK MEROSGA MUNOSIB EHTIROM

Davlatimiz rahbari bu galgi tashrif asnosida ham ajdodlarimizning dunyo tamadduniga qo‘shgan hissasini keng miqyosda ko‘rsatib berish, yoshlarimizni ana shu buyuk tarixiy merosga sadoqat ruhida tarbiyalash, kelgusida bu noyob zamonaviy maskanda turli ilmiy muhokamalar, bahs-munozaralar o‘tkazish, dolzarb g‘oya va kashfiyotlarni ilgari surish, yangi ilmiy kontentlar ishlab chiqish uchun barcha sharoitlar yaratilishiga e’tibor qaratdi.

Bugungi kunda muhtasham bino qad rostlab, qurilish ishlari yakuniga yetkazilmoqda. Markazning eng asosiy qismidan Qur’oni Karim zali o‘rin oladi. Bu yerda musulmon dunyosining ma’naviy durdonasi – qadimiy Usmon Mus’hafi joylashtiriladi. Shuningdek, Mus’haf atrofida jahonning eng mo‘tabar Qur’on qo‘lyozmalari, somoniylar, qoraxoniylar, xorazmshohlar, g‘aznaviylar, saljuqiylar, temuriylar va boshqa tarixiy sulolalar davrida bitilgan Kalomulloh nusxalari, shuningdek, ularning eski o‘zbek tilidagi tarjimalari ham qo‘yiladi.

Tashrif davomida muhtaram Prezidentimiz ushbu nodir qo‘lyozmalar bilan tanisharkan, tarixni o‘rganishda katta qadamlar tashlangani, yangi manbalar yuzaga chiqayotganini qayd etdi. Prezident ta’kidlaganidek, ularni faqat yodgorlik sifatida saqlamasdan, xalqimiz, xususan yoshlarga tushunarli tilda yetkazish, jahon jamoatchiligiga keng targ‘ib qilish kerak. Bu dargoh nafaqat o‘tmish haqida hikoya qiladigan, balki tarix, bugun va kelajakni bog‘laydigan, taraqqiyotimizning asosiy yo‘nalishlarini belgilab beradigan aql-tafakkur markazi bo‘lishi zarur.

Shuningdek, Davlatimiz rahbariga “Islomdan avvalgi sivilizatsiyalar”, “Birinchi Renessans davri”, “Ikkinchi Renessans davri”, “O‘zbekiston XX asrda”, “Yangi O‘zbekiston – yangi Renessans” kabi bo‘limlar hamda ulardan joy olishi ko‘zda tutilayotgan eksponatlar haqida ma’lumot berildi.

Xorazmiy, Farg‘oniy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Burhoniddin Marg‘inoniy, Mahmud Zamaxshariy, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo, Ali Qushchi kabi alloma va mutafakkirlar, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Hakim Termiziy, Abu Mansur Moturidiy, Abu Muin Nasafiy, Qaffol Shoshiy, Abdulxoliq G‘ijduvoniy, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband, Xo‘ja Ahror Valiy kabi ulamolarning islom ma’rifatiga qo‘shgan hissasi Markaz kontentidan alohida joy oladi.

Yurtboshimiz Markazning asosiy kirish foyesidan o‘rin oladigan buyuk allomalarimiz, tarixiy shaxslar qiyofalari aks etgan mahobatli rangtasvir asarlari bilan ham tanishdi. Ularni yanada takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar berdi. Shuningdek, markaz ekspozitsiyalarini bir-biriga bog‘laydigan, zamonaviy ko‘rinishdagi “Vaqt devori”, “Tarix yo‘lagi” singari interaktiv loyihalar bilan ham tanishdi. Yaqin vaqt ichida Markaz olimlari tomonidan aniqlangan tarixiy eksponatlar, xorijiy muzey va kutubxonalardan keltirilgan faksimil nusxalar ham namoyish qilindi.

> Davlat rahbarining
> **“Markaz bilan tanishgan odam ana shu tarixni yaqqol ko‘rib, islom dini, bu avvalo, tinchlik, taraqqiyot va bag‘rikenglik dini ekanini, o‘zbek xalqining dunyo tamadduniga qo‘shgan buyuk hissasini anglaydi”**,
> degan fikrlari ham ayni paytda bu yerda olib borilayotgan ishlar mazmun-mohiyatini belgilaydi.

Tashrif davomida Markaz ulug‘ ajdodlarimiz merosini chuqur tadqiq qilish, uni bugungi kunning o‘tkir muammolariga javob bera oladigan hayotbaxsh kuchga aylantirish maqsadida O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari bilan hamkorlikda faoliyat yuritmoqda. Kelgusida ana shu hamkorlikni yanada mustahkamlash, ushbu tashkilotlar faoliyatini har tomonlama muvofiqlashtirish, zamonaviy tahdidlarga munosib ilmiy javoblar topish lozimligi ta’kidlandi.

Ayni paytda Markaz tomonidan bir qator xalqaro ilmiy muassasa va tashkilotlar bilan hamkorlikda xalqaro kongress-konferensiyalar, madaniy meros haftaliklari tashkil qilinmoqda. Prezidentimiz ana shunday xalqaro anjumanlarni tizimli tarzda o‘tkazish, xorijiy hamkorlar bilan aloqalarni chuqurlashtirish, ilgari surilayotgan g‘oyalar va maqsadlarni amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha qimmatli tavsiyalar berdi. Ta’kidlash lozimki, kelgusida markaz binosida ana shunday xorijiy tashkilotlarning yurtimizdagi vakolatxonalari ham ish boshlashi kutilmoqda.

Albatta, davlat rahbarining buyuk madaniy-ma’rifiy merosga bo‘lgan ulkan e’tibori bu galgi tashrif davomida yana bir bor o‘z isbotini topdi. O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi jamoasi, hamkor tashkilotlar, ilmiy muassasalar vakillariga bu tashrif, unda ko‘tarilgan masalalar, qimmatli yo‘l-yo‘riq va tavsiyalar katta kuch va ilhom baxsh etdi, deyish mumkin.

**Rustam JABBOROV,**
**O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi ilmiy kotibi**

ESSE

# O‘LMAS ASARLAR YOZGAN BAXTLI ADIB



**Kitobday sehrli, kitobday qudratli mo‘jiza bo‘lmasa kerak bu olamda. Kitob bizni o‘tmishga, necha-necha asrlar oldin ro‘y bergan voqealar olamiga olib kiradi, kelajakda bo‘ladigan hodisalar bilan tanishtiradi. Kitob – Alloh tomonidan odam bolasiga berilgan buyuk va noyob ne’mat – tafakkur mahsuli.**

O‘lmas Umarbekovning “Sevgim, sevgilim” qissasini o‘qib, o‘quvchilik davrimni “boshimdan kechirdim”. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijod uyi O‘lmas Umarbekovning “Tanlangan asarlar”ini nashr etibdi. Unga adibning “Odam bo‘lish qiyin”, “Fotima va Zuhra” romanlari, “Sevgim, sevgilim”, “Yoz yomg‘iri” qissalari va o‘n ikkita hikoyasi kiritilgan. Bu asarlarning hammasini o‘qiganman, ayrimlarini bir necha marta. Shunga qaramay kitobni varaqladim-u “Sevgim, sevgilim” qissasiga kelganda bosh ko‘tarmay mutolaaga sho‘ng‘idim. Bu qissa birinchi marta e’lon qilinganida men to‘qqizinchi sinfda o‘qirdim. Juda ta’sirlanganman. Uning ustiga, voqea Samarqand viloyatining tog‘li qishloqlaridan birida kechadi. Unda tasvirlangan joylar men tug‘ilib-o‘sgan qishloqqa juda o‘xshaydi. Qissa qahramonlarining gapirishi, yurish-turishi, fe’l-atvori, turmush tarzi ham qishloqdoshlarimizning xuddi o‘zi. Shular sababmi yoki Oypopukning taqdiriga achinganimdanmi, bilmadim, ishqilib o‘sha paytda yozuvchi O‘lmas Umarbekovga xat yozganman. Nimalarni yozganman, xat adibga yetib borganmi-yo‘qmi, bilmayman.

Keyinchalik O‘lmas Umarbekov bilan tanishdim, payti kelib, ancha yaqin bo‘lib ham qoldik, turli safarlarda birga yurdik. “Quyosh men tomonda” degan kitobimni taqdim etganimda O‘lmas aka Yozuvchilar uyushmasining raisi edi. “Yaxshi nom qo‘yibsiz kitobga”, degani esimda. O‘sha kuni bir fursat adabiyot, ijod haqida suhbatlashdik. Shunda o‘sha voqeani – o‘quvchilik paytimda “Sevgim, sevgilim”ni o‘qib, xat yozganimni aytdim. O‘lmas aka kulib qo‘ydi-da, rahmat, dedi. Tabiiyki, esida yo‘q. U paytlarda yozuvchilarga ko‘plab xatlar kelardi, O‘lmas aka yuzlab xatlar olgan, shubhasiz.

“Sevgim, sevgilim” qissasi juda mashhur bo‘lgandi. Maktabimizda “Sharq yulduzi”ning shu qissa bosilgan soni qo‘lma-qo‘l bo‘lib ketgan edi. Yigit-qizlar o‘rtasida shu qadar mashhur bo‘lgandiki, oshiq-ma’shuqlar bir-biriga xat yozganda qizlar o‘zining ismi o‘rniga Oypopuk, yigitlar O‘ktam deb yozardi.

Qissani o‘qiyapman-u xayolan maktab davrida yuribman. Tamakizor-u jo‘xorizorlarni kezganimiz ko‘z oldimdan o‘ta boshladi. Tamakining achchiq hidi dimog‘imga urilganday, makkajo‘xorining shabadada shitirlashlari eshitilganday tuyuldi. Bizning tumanimizda – Urgutda paxta ekilmas, ammo o‘quv yili boshlanishi bilan bir hafta o‘tib-o‘tmay Ishtixon tumaniga paxta terishga borar, shu bilan noyabr, gohida dekabrning o‘rtalarigacha qolib ketardik. Yoshlik ekanda, na yotish-turish, na yuvinish uchun tuzukroq sharoit bor, lekin nolimasdik, o‘zimizcha nimalardandir zavqlanar edik. Romantika degani shumikan? Balki... O‘sha kezlarda “Sevgim, sevgilim” qissasi, uning qahramonlari, ayniqsa, Oypopuk va O‘ktam bizning yo‘ldoshimiz edi.

Asar ishonch haqida, ishonchsiz hech narsa bo‘lmasligi to‘g‘risida. Qissa shunday yakunlanadi: “Odamlar! Sevgi ishonchsiz bo‘lmaydi. Bir-biringizga ishoning. Dunyoda bundan katta baxt yo‘q!”

...O‘lmas Umarbekov Yozuvchilar uyushmasining raisi vazifasidan keyin madaniyat vaziri, O‘zbekiston Bosh vazirining o‘rinbosari kabi mas’ul lavozimlarda ishladi. Anglaganim va guvoh bo‘lganim shuki, O‘lmas Umarbekov hayotining so‘nggi damlarigacha sira o‘zgarmadi, oddiyligini, samimiyatini, kamtarligini yo‘qotmadi, hoy-u havaslarga berilmadi, manmanlik, kibr-u havo ko‘chasiga umuman yaqinlashmadi. Yana bir xislati – qaysi lavozimda ishlamasin, ijoddan uzoqlashmadi, bir necha romanlar, qissalar, pyesalar, hikoyalar, kinossenariylar yozdi. “Sevgim, sevgilim” qissasidan tashqari “Odam bo‘lish qiyin” nomli roman, “Yoz yomg‘iri”, “Damir Usmonovning ikki bahori” kabi asarlari ham o‘quvchilarning mehriga sazovor bo‘ldi. “Qiyomat qarz”, “Shoshma, quyosh”, “Komissiya”, “Kuzning birinchi kuni”, “Oqar suvlar”, “Kurort”, “Arizasiga ko‘ra”, “Yer yonmoqda” pyesalari Milliy teatrimizda va boshqa ko‘plab teatrlarda sahnaga qo‘yildi, tomoshabinlar, san’atshunoslar e’tirofiga sazovor bo‘ldi.

Hamza nomidagi o‘zbek davlat drama teatri (hozirgi Milliy teatr)ning Moskva gastroli (1977-yil) repertuaridan joy olgan “Qiyomat qarz” spektakli moskvalik teatrshunoslar va muxlislarga manzur bo‘lgani esimda. Bu olqishlarga dramaning mukammalligi va bosh rol – Sulaymon ota rolini ijro etgan buyuk aktyor Shukur Burhonovning yuksak mahorati sabab bo‘lgan edi.

Adib asarlarining aksariyatida inson qadri, odamlarning bir-biriga ishonchi, millatimizga xos ezgulik, halollik, poklik, rostgo‘ylik, birovning haqidan qo‘rqish, haromdan hazar kabi fazilatlar, yoshlarning pok muhabbati ulug‘lanadi. Umarbekov asarlarini o‘qigan kitobxon beixtiyor o‘zining xulq-atvoriga, qilayotgan ishlariga bir nazar soladi, faoliyatini bir qur tahlil qiladi. Asar qahramonlariga o‘zini taqqoslab ko‘radi, ularning yaxshi ishlaridan andoza olishga, qilgan xatolari, noo‘rin harakatlaridan tegishli xulosa chiqarishga chog‘lanadi. Adib asarlarida o‘zbek xarakteri, milliy mentalitetimiz mohirona tasvirlangan.

* * *

O‘lmas Umarbekov suhbati shirin, ma’rifatli inson edi. Yuqori lavozimlarda ishlagan paytlari ham barcha bilan, jumladan, yosh ijodkorlar bilan ochiq, samimiy suhbat qilardi. Madaniyat vaziri bo‘lgan yillari yosh dramaturglarni yig‘ib, gurung qilgani, ularning taklif-mulohazalarini erinmay eshitgani esimda. O‘sha vaqtlarda men “O‘zbekiston madaniyati” gazetasida adabiy xodim bo‘lib ishlardim. U paytda vazirlik ham, gazeta tahririyati ham mashhur “Navoiy, 30”da joylashgan edi. Bir kuni binodan chiqayotsam O‘lmas aka ham chiqib qoldi. Salom-alik qildik. U kishi mashinasi eshigini ochdi, bir oyog‘ini mashinaga qo‘ydi-yu, yana qaytib tushdi va men tomonga yurdi. Men ham u kishi tomon odimladim. Ochiq chehra bilan, o‘ziga juda yarashgan tabassum bilan, iltimos ohangida dedi: “Madaniyat sohasiga ham gazetada e’tibor berib turinglar”. Ochig‘i, o‘shanda juda hayron bo‘lganman. Men kimman? Tahririyatda oddiy xodimman, xolos. U kishi vazir! Yana deng, men ishlaydigan gazeta Madaniyat vazirligining organi. Bemalol topshiriq berishi mumkin. Hamma jihatdan haqi ham, huquqi ham bor! Menga emas, gazeta bosh muharririga ham topshiriq berishga haqli, lavozimi shuni taqozo etadi.

Umarbekov unday qilmadi, unday qilmasdi ham. Chunki u tom ma’nodagi ziyoli, haqiqiy madaniyatli vazir edi!

Odamning kimligi, fe’l-atvori safarda ko‘proq bilinadi. O‘lmas aka bilan bir necha safarlarda birga bo‘lganmiz. Esimda, 80-yillar edi. Samarqandda adabiyot bo‘yicha qandaydir nufuzli tadbir bo‘ldi. Unda ittifoqning deyarli barcha respublikalaridan shoirlar, yozuvchilar, adabiyotshunoslar ishtirok etdi. O‘lmas Umarbekov Yozuvchilar uyushmasining raisi edi. Anjuman uch kun davom etdi. So‘ngra konferensiya qatnashchilari Qoraqalpog‘iston Respublikasiga bordi. Adashmasam, uchta vertolyotga chiqib, Orol dengizini aylanib ko‘rdik. Yuqoridan qarasa dengizning qurigan joylari aniq ko‘rinarkan. Orolimizning ahvolini ko‘rib odamning yuragi uvushib ketadi. Jon talvasasida yotgan insonga o‘xshaydi. Moskvadan, turli respublikalardan kelgan adiblar Orolning ahvolini o‘z ko‘zlari bilan ko‘rgach, vaziyat chindan ham jiddiy va og‘ir ekaniga amin bo‘lishdi. Taniqli qoraqalpoq yozuvchisi To‘lepbergan Qayipberganov mehmonlarga Orolning tarixi, bu ahvolga kelib qolishining sabablari haqida gapirib berdi.

O‘sha kuni oqshom Qayipberganov mehmonlardan bir guruhini uyiga taklif qildi. Uning bir gapi esimda qolgan. Kattagina hovlisiga ishora qilib, dedi: “Ko‘ryapsizlarmi, hovlida hech narsa yo‘q: na gul, na daraxt. Sababi – hech narsa o‘smaydi. Har yil bahorda turli ko‘chat ekamiz. Qurib qolaveradi. Oroldan ko‘tarilayotgan tuz yerlarni qotirib, sho‘rlatib tashlagan. Ekin ekib bo‘lmaydi. Foydasi yo‘q... Shu ahvol davom etaversa, yana o‘n besh-yigirma yildan keyin nima bo‘ladi, Xudo biladi...”

Nima bo‘lgani barchamizga ayon...

Osh-ovqatdan so‘ng hamma guruh-guruh bo‘lib o‘zaro gurungga berilib ketdi. Kimdir hovliga chiqib, sigaret tutatgan, yana kimdir xilvatroq joyni olib, xayolga cho‘mgan.

O‘lmas aka anjumanga borgan uch-to‘rt yosh shoir va yozuvchilarni bir xonaga chaqirdi. Juda ochiq, samimiy suhbatlashdi, kimning qanday muammosi bor – kimningdir kitobi nashriyotda navbat kutib yotipti, kimnidir uy-joy masalasi qiynayapti... Xullas, har bir yosh ijodkorning o‘ziga yarasha dard-u hasrati bor. Uyushma raisi shunday muhit yaratdiki, hech kim tortinmadi, uyalmadi, bor gapni, o‘z muammosini batafsil aytdi. O‘lmas aka hammani erinmay eshitdi, ba’zi masalalarga aniqlik kiritib oldi. Eng asosiysi, barchaning masalasini yon daftariga yozib oldi. Suhbat uyushma raisi bilan yosh shoir va yozuvchilarning emas, tengdoshlarning o‘zaro gurungi kabi kechdi.

Shunday e’tiborli, yoshlarga mehribon rahbar edi Umarbekov.

O‘lmas aka bilan bo‘lgan yana bir safarni esga olgim keldi. Bu 1989-yil aprel oyida bo‘lgan edi. O‘shanda Qirg‘iziston poytaxti Frunze (hozirgi Bishkek) shahrida O‘rta Osiyo respublikalari va Qozog‘iston (u vaqtda shunday atalardi) teatrlarining “Navro‘z-89” festivali bo‘ldi. Unda Farg‘ona viloyati teatri Sharof Boshbekov asari asosida rejissyor Olimjon Salimov qo‘ygan “Temir xotin” spektakli bilan ishtirok etdi va bosh sovrinni qo‘lga kiritdi. Festival yakunlanishidan ikki-uch kun oldin O‘zbekiston madaniyat vaziri O‘lmas Umarbekov Bishkekka bordi. O‘zbekistondan festivalga kelgan san’atkorlar, teatrshunoslar, rejissyorlar, muxbirlar bilan suhbatlashdi, ahvol qandayligi bilan qiziqdi. Festival tugaguncha hammadan hol-ahvol so‘rab turdi. “Temir xotin” g‘olib bo‘lgani e’lon qilingach, Sharof Boshbekovni, Olimjon Salimovni, spektaklda qatnashgan barcha ijodiy va texnik xodimlarni tabrikladi. Bu yutuqdan hammadan ko‘proq quvondi nazarimda...

O‘lmas akaning kelishgan bo‘y-basti, ochiq chehrasi, kulib turadigan ko‘zlariga hammaning havasi kelardi. U kishi mayin, yoqimli ovozda shoshilmay, so‘zlarni dona-dona qilib, chaynamay, g‘ijimlamay gapirar edi. Bu jihatdan ham haqiqiy arbob edi-da.

Shunday odam umrining oxirgi yillarida og‘ir dardga chalindi. Bu dunyoda ko‘z degan narsa ham bor. O‘lmas akaga ko‘z tegmadimikin deb o‘ylab qolaman. Uzoq davolandi Toshkentda, Moskvada. Irodali odam edi, sir boy bermadi, bildirmaslikka harakat qildi. Ammo buning iloji yo‘q edi, chunki ovozi chiqmay qoldi, gapirolmay qiynalar, fikrini qog‘ozga yozib berardi. Ochig‘i, uning holatini ko‘rib, har qanday odamning yuragi ezilardi. Shunday holga tushgan ikki odamni ko‘rdim. Biri O‘lmas aka bo‘lsa, ikkinchisi – akademik Shavkat Vohidov. Qanday buyuk olim edi Vohidov, kosmos sohasi bo‘yicha yirik mutaxassis edi. Uzoq yillar nomi sir tutilgan, kitoblari turli taxalluslar bilan nashr etilgan. Mustaqillikka erishganimizdan keyin asta-sekin maxfiylik olib tashlandi nomidan. 1992-yilda O‘zbekistonda aerokosmik maktabiga asos soldi va uzoq yillar o‘zi rahbarlik qildi...

1993-yil edi, adashmasam. Men Prezident devonida bosh konsultant bo‘lib ishlardim. Bir kuni xonaga O‘lmas aka kirib keldi. Odatdagiday chiroyli, ozoda kiyingan, sochlari silliq taralgan, yuzlari sal so‘lg‘inligini hisobga olmasa, o‘sha-o‘sha ko‘rkam Umarbekov. Tomog‘ini mayin oq mato bilan o‘ragan edi, sharf emas, albatta. Ochig‘i, bu tashrifdan nihoyatda xursand bo‘ldim. Chunki betobligidan xabarim bor edi. Shu tufayli anchadan beri ko‘rmagandim. Salom-alik qildik. Bir-ikki so‘zni qiynalib gapirdi. Har zamonda tomog‘ini o‘sha o‘ralgan mato ustidan sekin bosib qo‘yardi. Prezidentning yordamchisi bilan uchrashmoqchi ekanini, u joyidami-yo‘qmi bilib berishimni, o‘rnida bo‘lsa, o‘zini qabul qilishini so‘rashimni aytdi (qog‘ozga yozib berdi). Men Georgiy Alekseyevichga qo‘ng‘iroq qildim. Joyida ekan. Maqsadni aytdim. Kraynov hech ikkilanmasdan kelaversin, dedi. Bu gapdan O‘lmas aka mamnun bo‘ldi. O‘sha o‘ziga yarashgan tabassum bilan jilmaydi, menga minnatdorlik bildirdi. Georgiy Alekseyevichning xonasiga kuzatib qo‘ydim. Men O‘lmas aka Yordamchi bilan nima mavzuda gaplashganini aniq bilmayman. Lekin bemor holida ham oyoqqa turib, jahd qilib kelganidan his qildimki, u kishi shaxsiy masalada emas, millat taqdiriga doxil bo‘lgan muhim masalani ko‘tarib kelgan edi.

U kishini oxirgi ko‘rganim shu bo‘ldi.

O‘lmas Umarbekov hayotdan erta ketdi, juda erta ketdi. Oltmish yosh-a!. Shu qisqa hayoti davomida tinmay ishladi, ijodda ham, ijtimoiy hayotda ham. Shunga qaramay oddiy, kamtarona yashadi, dang‘illama uylar qurmadi, xorij mashinalaridan olmadi. Rosmana o‘zbekona hovlida umrguzaronlik qildi. Mol-u dunyoga ruju qo‘ymadi. Ammo boy ma’naviy xazina qoldirdi.

Ustozning aksariyat kitoblari zamon sinovlaridan eson-omon o‘tib kelmoqda. Ular bugun ham kitobxonlarning sevimli asarlari qatorida turibdi. O‘lmas Umarbekov baxtli asarlar yaratgan baxtli adib. Umuman, yillar, zamonlar, siyosat-u mafkuralar ta’sir qila olmaydigan, hamma davrda o‘quvchilar sevib mutolaa qiladigan kitoblar – baxtli kitoblardir.

**Mamatqul HAZRATQULOV**



> **“Adabiyotning badiiyligi shundaki, u hayotni qanday bo‘lsa, shunday tasvirlaydi. Uning maqsadi – halollik va haqiqatdir.**
>
> **Anton CHEXOV**

2025-yil 31-yanvar
№ 5(57)

# KURRAYI QUTLUG‘NI ASRAMOQ KERAK!



Boshlanishi 1-sahifada.

Bunday fojiaviy holatlarga o‘rganib, befarq bo‘lib qolayotganimiz ayniqsa achinarlidir. Nazarimda, hozir insoniyatning istiqboliga soya solayotgan eng katta tahdid bu – ekologik muammolar. Negaki, urushlar, ziddiyatlar, muhorabalarni odamzod sog‘lom tafakkurga quloq tutib, o‘zaro kelishib hal etishi mumkin. Ammo bashariyat ekologik muammolarga bugun jiddiy e’tibor qaratmasa, ertaga vaziyat butkul nazoratdan chiqib ketishi tayin.

O‘tgan asrning oxirlarida shakllangan va mutaraqqiy dunyo kun tartibidan muqim o‘rin egallagan “yashil” iqtisodiyot konsepsiyasi ham aynan atrof-muhitni asrab-avaylash, inson iqtisodiy faoliyatining uni o‘rab turgan makonga salbiy ta’sirini kamaytirishga qaratilgandir. Ya’ni, endilikda iqtisodiyotda asrlar mobaynida hukm surib kelgan “Manfaat – birlamchi” degan qoidadan, xalqona aytganda, “Taka bo‘lsin-u sut bersin” qabilidagi yondashuvlardan voz kechilmoqda. Iqtisodiy o‘sishga har qanday yo‘l bilan emas, balki atrof-muhitga zararni imkon qadar kamaytirish orqali erishish g‘oyasi ilgari surilmoqda.

“Yashil” iqtisodiyot, sirkulyar iqtisodiyot, chiqindisiz iqtisodiyot, yopiq iqtisodiyot, tiklanadigan resurslar iqtisodiyoti, barqaror iqtisodiyot kabi atamalar o‘zaro ma’nodosh, bir-birini to‘ldiruvchi yo‘nalishlarni aks ettiradi. Ular chiziqli, ya’ni an’anaviy iqtisodiyotga muqobil yangi taraqqiyot modellaridir. Qanday istiloh ishlatilmasin, mohiyat, maqsad va marra bitta: davlatlar atrof-muhitni asrashi, iqtisodiyotning ekologik yo‘nalishiga urg‘u berishi, pirovardida inson, tabiat va taraqqiyot o‘rtasida muvozanatga erishishi kerak!

Yashil iqtisodiyot modeli insonning tabiiy boyliklarni mas’uliyat bilan istifoda etishi, iqtisodiy taraqqiyot deya atrof-muhitga, odamlar salomatligiga yetkazilayotgan ziyon-zarardan ko‘z yummaslikni talab etadi. Bu esa, o‘z navbatida, ishlab chiqarishda resurslar sarfini kamaytirish, tiklanadigan manbalarni o‘zlashtirishga e’tibor qaratish, umuman, tabiatga munosabatda oqilona, odilona yondashuvni taqozo qiladi.

***– Muammoga alohida e’tibor qaratilib, uni bartaraf etishga davlat miqyosida, tizimli ravishda kirishilayotgani quvonarli, albatta. Zotan, atrof-muhitni asrash masalasi biror zamonda hozirgidek dolzarb, o‘tkir muammoga aylangan emas. Mudom “o‘t balosi, suv balosidan asrasin” deb duo qilib yuradigan xalqimiz to‘rt unsur keltirayotgan turfa musibat, balolarga duchor bo‘lmoqda. Bu tabiat qasdimi yoki xom sut emgan bandayi ojizlarning xatosimi??***

– Tabiat injiq va o‘jar xilqat. U bilan hisoblashmaslik katta yo‘qotishlarga olib kelishi tayin. Sovetlar davrida “Biz tabiatdan in’om kutib o‘tirmaymiz, balki undan tortib olamiz” qabilida g‘ayriaxloqiy shior bor edi. Alqissa, biz tabiatdan asrlar mobaynida go‘zal yurtimiz “kokillarini yuvgan” Amudaryo va Sirdaryoni tortib oldik. Oqibati ayon: muazzam Orol dengiz qurib bormoqda, cho‘llashish jarayoni kuchayib ketgan.

Milliy atrof-muhit ma’lumotlari markazining (NOAA) Global iqlim hisobotida 2023-yilning har oyi eng issiq oylar qatoriga kirgani, yilning ikkinchi yarmida (iyun–dekabr) oylarning barchasi rekord darajada issiq bo‘lgani qayd etilgan. Xususan, iyul, avgust va sentyabr oylarida global harorat o‘rtacha ko‘rsatkichdan 1,0°C yuqori bo‘lgan. Oylarning ketma-ket ravishda o‘ta issiq kelishi ilk bor kuzatilgan.

O‘zbekistonda esa o‘rtacha yillik havo harorati aksar hududlarda me’yordan 1,6–2,3°C, Orolbo‘yi va cho‘l zonalarida o‘rtacha 2,9–3,1°C gacha yuqori bo‘ldi. Mamlakatimizning faqatgina tog‘li hududlarida o‘rtacha yillik harorat jahon normasidan oshmadi va 0,5–0,9°C gacha qayd etildi. Soha mutaxassislari fikricha, O‘zbekiston mavsumiy suv toshqinlari va qurg‘oqchilik tufayli gidrometeorologik xatar va tabiiy ofatlar xavfi mavjud mamlakatlar sirasiga kiradi. Qolaversa, ko‘chkilar, chigirtkalar bostirib kirish xavfi ham mavjud.

Iqlim o‘zgarishi ortidan qishloq xo‘jaligi uchun ob-havo sharoitining yomonlashishi, hosildorlikning pasayishi va favqulodda hodisalar sonining oshishi oziq-ovqat xavfsizligiga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bugungi kunda oziq-ovqat xavfsizligi hukumatlar, xalqaro tashkilotlar va butun dunyo oldida turgan eng dolzarb va murakkab muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. BMT ma’lumotlariga ko‘ra, dunyoda 828 milliondan ziyod odam surunkali ochlikdan aziyat chekayotir. Ko‘plab mamlakatlarda to‘yib ovqatlanmaslik, ayniqsa, bolalar o‘rtasida ko‘p uchramoqda. “Bo‘sh qop tik turmas”, deydi dono xalqimiz. Oziq-ovqat yetishmovchiligi butun boshli avlodlarning jismoniy va ruhiy rivojlanishdan ortda qolishiga sabab bo‘layotir.

***– Ekologik madaniyat, atrof-muhitni asrash haqida gap ochilsa, G‘arbning mutaraqqiy davlatlari o‘rnak qilib ko‘rsatiladi. Yevropa davlatlarida ko‘cha-yu xiyobonlar yog‘ tushsa yalagudek toza ekani yoki yaponiyalik muxlislar futbol o‘yinidan so‘ng stadionni ko‘ngilli ravishda tozalab ketishiga barchamiz tahsin-u tasanno aytamiz va beixtiyor o‘z kamchiliklarimizni tanqid qilmoqqa tushamiz. O‘ylanib qolasan kishi: o‘tmishda ham biz atrof-muhitni asrashga hozirgidek beparvomidik yo keyinchalik bu illatga mubtalo bo‘ldikmi? Axir, uyat, uvol, andisha, farosat, did, sajiya... kabi boshqa tillarga aynan tarjima qilib bo‘lmaydigan so‘zlarimiz ko‘p-ku?!***

– To‘g‘ri aytdingiz, atrof-muhitni asrash bobida G‘arbiy Yevropa mamlakatlari, qolaversa, Kunchiqar o‘lkadan o‘rnak, ibrat olsa arziydigan jihatlar bisyor. Shu bilan birga, ayrim masalalarda velosipedni qayta ixtiro qilib o‘tirmagan ham ma’qul. Ming yillar davomida shakllangan milliy urf-odatlarimiz, islomiy qadriyatlarimiz borki, agar ularga og‘ishmay rioya qilsak, mutaraqqiy dunyoga ham ibrat ko‘rsata olamiz. Binobarin, ekologik madaniyatni faqat rasmiy qonun-qoidalar bilangina qaror toptirish mushkul. Masalaning ma’naviy-axloqiy jihatlari ham katta ahamiyatga ega.

Tabiiy boyliklarni ko‘z qorachig‘idek asrash, oqilona xarjlash islomda ne’matlarga shukronalik va ibodat sifatida qaraladi. Ne’matlarni, tabiiy boyliklarni havoga sovurish, isrofgarlik taqiqlanadi.

Asrlar osha yashab kelayotgan islom ruhi bilan sug‘orilgan urf-odatlarimiz, an’analarimiz ham ona tabiatni asrashga o‘rgatadi. Masalan, oqar suvga suprindi, chiqindi tashlash qattiq qoralangan. Bugun esa ayrim yurtdoshlarimiz katta anhorlarga kanalizatsiya suvini oqizishdan ham uyalmayotir. Shu qadar befarq, loqayd bo‘lib ketdikki, ichimlik suvi isrof bo‘lishiga ham tomoshabinmiz, hatto nosoz jo‘mrakni alishtirib qo‘yishga yaramaymiz. Oilada o‘g‘il farzand tug‘ilsa, unga atab ko‘chat ekishdek go‘zal odatimiz bor edi. Xo‘sh, qay birimiz farzandimizga atab yerga nihol qadadik? Bu odatni-ku qo‘ying, “Yashil makon” deb atalgan xayrli tashabbusni ham gohida ko‘zbo‘yamachilikka aylantirib yubormayapmizmi?!

***– Nurislom aka, aytganlaringizdan anglashilmoqdaki, tarixning turli davrlarida xalqimiz qaysi din yo mazhabga e’tiqod qilmasin, tabiatni asrash, ona zaminni e’zozlash, berilgan ne’matlarning qadriga yetish kabi ezgu xislatlar uning fitratida mavjud bo‘lgan. Bugun zehniyatimiz puchmoqlarida mudrab yotgan o‘sha xislatlarni qayta uyg‘otmoq uchun nimalar qilishimiz kerak?***

– Ko‘ngilda bot-bot bosh ko‘tarib qoladigan og‘riqli savolni berdingiz, Olimjon inim! Darhaqiqat, tabiatni onadek e’zozlash xalqimiz fitratida jo bo‘lgan xislat, ya’niki jibilliy fazilat. Pinakka ketgan, mudroq bosgan xislatlarni uyg‘otish uchun siz-u biz, jamiyatdagi barcha ziyolilar bir yoqa, bir yeng bo‘lib harakat qilishimiz, ma’rifiy targ‘ibotni kuchaytirishimiz kerak, nazarimda.

Sirasini aytganda, islomda ekologik madaniyat va mas’uliyat tabiatga hurmat, uni asrab-avaylash va boyliklardan oqilona foydalanish tamoyillariga asoslanadi. Qur’on va hadisda odamzodning yerning qo‘riqchisi sifatidagi roli ta’kidlanadi, Allohning in’omlarini hurmat qilish lozimligi uqtiriladi.

Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.) ham atrof-muhitni muhofaza qilish masalasiga doir tavsiya, ko‘rsatma va buyruqlar berganlar. Hadisda bunday deyiladi: “Agar biror banda ko‘chat ekadigan bo‘lsa, undan inson, hayvon yoki qush yesa, bu o‘sha bandaga qiyomat kunigacha sadaqayi joriya bo‘ladi” (Muslim rivoyati). Yoki “Ertaga qiyomat desa ham ko‘chat eking” degan mazmundagi hadisni yodga olaylik.

Payg‘ambarimiz tuproqni quritmaslik, unga dam berish va yerga ishlov berish qoidalariga rioya qilishni ham buyurganlar. Shuningdek, u zot daraxtlarni zaruratsiz kesish va o‘simliklarni yo‘q qilishdan qaytarganlar.

Havo ko‘zga ko‘rinmasa-da, benazir hayotiy manbadir. Islomiy ta’limot ham uni toza saqlashni uqtiradi. Aholi yashash joylariga chiqindi tashlash va sog‘liq uchun zararli chiqindilarni yoqishni man etadi. Bu kabi hadislardan tabiatni asrash ham insoniy, musulmoniy burchimiz ekani oydinlashadi.

***– Savolim keskinroq ohangda bo‘lsa ma’zur tutgaysiz, domla. O‘tmishda butun dunyoga ustozlik qilganimiz haqida ko‘p gapiramiz. G‘arb hatto sanitariya-gigiyena qoidalarini ham musulmon Sharqidan o‘rgangan deymiz ko‘ksimizga urib. Moziyda jumlayi jahonga muallimlik qilganimiz haqrost, uni rad etmoqchi emasmiz. Ammo hadeb tarixiy shuhratdan bahs etish bilan bugunimiz o‘zgarib qolmaydi-da. Xo‘sh, atrof-muhitni asrash borasida bugungi musulmon dunyosidagi vaziyatni qanday baholaysiz?***

– E’tibor bersangiz, suhbat davomida muvozanat, me’yor kabi tushunchalar xususida bir necha o‘rinda fikr bildirdim. Nazarimda, tarixiy xotira, tarixiy g‘urur bobida ham me’yorni unutmagan ma’qul. Bevosita savolda ko‘tarilgan masalaga kelsak, musulmon dunyosi asta-sekin bo‘lsa-da atrof-muhitni asrash nechog‘li muhim ekanini anglab bormoqda. Xususan, XXI asrda ko‘plab musulmon mamlakatlarida islomiy tamoyillarga asoslangan ekologik harakatlar paydo bo‘ldi.

Global musulmon iqlim tarmog‘i (Global Muslim Climate Network) dunyo bo‘ylab musulmon faollarni birlashtirib, iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish va tabiiy resurslarni muhofaza qilishga chaqiradi. Bu tuzilma xalqaro sammitlarda ekologik masalalarni ilgari surishda muhim rol o‘ynamoqda. “Yashil masjid” tashabbusi orqali dunyo bo‘ylab masjidlar quyosh energiyasiga o‘tmoqda. Bundan tashqari, yomg‘ir suvini yig‘ish tizimlari o‘rnatilmoqda, ekologik ta’lim tadbirlari o‘tkazilmoqda.

2015-yilda islom ulamolari va yetakchilari Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha Islom deklaratsiyasini qabul qildi. Ushbu hujjatda musulmon mamlakatlari iqlim o‘zgarishiga qarshi faol kurashish va barqaror rivojlanish tamoyillarini amalga oshirishga da’vat etilgan.

Musulmon davlatlari bu yo‘nalishda ko‘plab dasturlarni amalga oshirmoqda. Masalan, Saudiya Arabistonining “Yashil Saudiya” dasturidan ko‘zlangan maqsad o‘rmon plantatsiyalari maydonini ko‘paytirish, cho‘llanishga qarshi kurashish va karbonat angidrid chiqindilarini kamaytirishdan iborat. Ushbu dastur doirasida 10 milliard tup daraxt ekish rejalashtirilgan.

Birlashgan Arab Amirliklarida barqaror urbanizm namunasi hisoblangan Masdar shahri barpo etilmoqda. Bu maskan qayta tiklanadigan energiyadan foydalanadi, chiqindilar minimallashtiriladi va atrof-muhitni saqlash uchun innovatsion texnologiyalar joriy qilinadi.

Ko‘p nufusli Indoneziya ham o‘rmon va biologik xilma-xillikni muhofaza qilish bo‘yicha loyihalarni amalga oshirmoqda. Bu borada daraxt kesishni kamaytirish, mangrov ekotizimini tiklash tashabbuslarini qayd etish joiz.

Kuzatuv va tahlillar tarixiy amaliyotdan tortib, zamonaviy tashabbuslargacha – islomning tabiatni muhofaza qilish an’anasi musulmon jamiyatlarida atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanishga faol hissa qo‘shishini ko‘rsatadi. Keltirilgan misollar ekologik mas’uliyat islom dunyoqarashining ajralmas qismi ekani va u global ekologik muammolarni hal qilishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilishini yana bir karra tasdiqlaydi.

Islomga xos ekologik tamoyillarni xalqaro miqyosda joriy etishda bir qator qiyinchiliklar ham mavjud. Avvalo, global ekologik munozaralarda islom qadriyatlari va ularning barqaror rivojlanishga ta’sir salohiyati ko‘pincha yetarlicha baholanmaydi. Bunga islomiy ekologiya tamoyillarini targ‘ib qiluvchi ilmiy nashrlar va o‘quv dasturlari yo‘qligi ham sabab bo‘lmoqda. Boz ustiga, ayrim musulmon davlatlari barqaror rivojlanish tamoyillariga zid bo‘lgan siyosiy beqarorlik, mablag‘ yetishmasligi va neft-gazga qaramlik vajidan ekologik dasturlarni amalga oshirishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda.

Islomiy ekologik tamoyillarni global miqyosda joriy etish talay mushkulotlarni yengib o‘tishni taqozo etadi. Biroq bu jarayon yanada barqaror va ekologik mas’uliyatli jamiyatni shakllantirish uchun keng istiqbollarni ochadi. Islomiy qadriyatlarning xalqaro barqaror rivojlanish dasturlariga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi sayyoramizni kelajak avlod uchun saqlab qolishda muhim o‘rin tutadi.

***– “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish davr talabi ekanini hamma bot-bot takrorlaydi. Nima deb o‘ylaysiz, tabiiy xomashyo – neft va gaz zaxirasiga boy bo‘lgan O‘zbekiston “yashil” iqtisodiyot rivojidan manfaat ko‘radimi?***

– Shubhasiz, “yashil” iqtisodiyotga o‘tish – davr talabi. Zotan, undan boshqa muqobil yo‘lning o‘zi yo‘q. U an’anaviy iqtisodiyotning zamonaviy rivojlanish modeli hisoblanadi. Insoniyat oldida ikki yo‘l turibdi: yo tiklanmaydigan resurslarni iste’mol qilib tugatish orqali sayyoramizdagi ekologik vaziyat butunlay izdan chiqariladi (Tabiiy resurslarning ham cheki-adog‘i bor. Hozirning o‘zidayoq gaz, neft, ko‘mir va boshqa qazilma boyliklarni kovlab olib, borgan sari yerning pastki qatlamlariga tushib bormoqdamiz. Bu esa qazib olish xarajatlarini ko‘paytirmoqda) yoinki o‘z vaqtida etakni yig‘ib, “yashil” iqtisodiyotga o‘tiladi, shu orqali odamlarning risoladagidek hayot darajasi ta’min etiladi.

Bu talablar dunyo iqtisodiyotining ajralmas subyektiga aylangan O‘zbekistonga ham daxldor, albatta. O‘zingiz xomcho‘t qilib ko‘ring, mamlakatimizda 1 dollar yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish uchun 0,4 kg neft ekvivalenti sarflanadi. Bu jahondagi o‘rtacha ko‘rsatkichdan (0,11 kg) 3,6 barobar ko‘pdir. Boya aytganimizdek, “yashil” iqtisodiyot energiya sarfini minimallashtirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalariga o‘tishni yoqlaydi. O‘zbekistondagi issiqxona gazlari chiqindilarining 90 foizidan ziyodrog‘i karbonat angidrid va metan bilan bog‘liq bo‘lib, bu hududlar ekologik holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bunday vaziyatda ekologik toza transport va energiya tejovchi texnologiyalardan foydalanish orqali zararli chiqindini kamaytirish mumkin.

“Yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish uchun suv va energiya kabi tabiiy resurslardan tejamkor foydalanish texnologiyalarini joriy etish, issiqxona gazlarini kamaytirish tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash zarur. Darvoqe, yangi tashabbuslar nafaqat ekologik vaziyatni yaxshilash, balki mamlakat iqtisodiyotini mustahkamlash, yangi ish o‘rinlarini yaratish imkonini ham beradi.



***– Yaqin fursatda atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyotga o‘tishni jadallashtirish bo‘yicha davlat dasturi amalga tatbiq etiladi. Davlatning bu boradagi vazifalari ma’lum. Xo‘sh, jamiyat ahli, vatandoshlarimiz ushbu muammolarni tezroq bartaraf etish uchun nimalarga e’tibor berishi lozim deb hisoblaysiz?***

– “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish borasida hukumatimiz tomonidan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilayotgani rost. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining uchinchi ustuvor yo‘nalishi “Suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish” deb ataladi. Bu yo‘nalishga muvofiq, har yili 200 mln tup daraxt ekish va mamlakatda yashillik darajasini 30 foizga yetkazish, bog‘lar, “yashil belbog‘”lar, daraxtzorlarni barpo etish, o‘rmonzorlarni ko‘paytirish, ayniqsa, Orolbo‘yi mintaqasida o‘rmonzorlarni 2,3 mln gektarga yetkazish kabi vazifalar qo‘yilgan. Bu shoyon tahsinga loyiq, albatta. Ammo bu borada shaxsiy namuna va mas’uliyatning rolini inkor etib bo‘lmaydi. Suvsiz, qum-toshloq yerga navniholni qadab qo‘ygan bilan daraxtzor barpo bo‘lib qolmaydi. Uni parvarishlash lozim, axir. Yurtimizda daraxt kesishga moratoriy e’lon qilinganidan barchaning xabari bor. Biroq ba’zi hududlarda daraxtkushlik davom etmoqda. Puldor tashkilotlar, vallomatlar arzimagan jarimani to‘lab, nomiga bir-ikki ko‘chat tiqib qo‘yishi mumkin. Lekin u ko‘chat qachon o‘sib-ulg‘ayadi-yu, qachon soya-salqin, kislorod beradi? Demak, O‘zbekistonni, shu aziz Vatanni sevadigan har bir ziyoli, har bir fuqaro bu ishga mas’ul bo‘lishi kerak. Daraxtzor barpo qilish qancha tup ko‘chat ekish bilan emas, qancha tup ko‘chat parvarish qilish va o‘stirish bilan baholanishi kerak.

Bu borada yana bir e’tiborga molik masala bor. Islomda ekologik mas’uliyatning asosiy tamoyillaridan biri mo‘tadillikka rioya qilish va isrofga yo‘l qo‘ymaslikdir. Avvalgi savollarga javoblarda ta’kidlaganimizdek, Qur’oni Karim va hadisi sharifda isrofgarchilik, haddan oshish nafaqat tabiatni, balki jamiyatni ham halokatga olib keluvchi illat ekani qayta-qayta ta’kidlangan, keraksiz hashamat, ortiqcha hoy-u havas qoralangan. Bunday oqilona yondashuv resurslarni tejash, atrof-muhitga yukni kamaytirish va ekologik ofatlarning oldini olishga yordam beradi.

E’tibor qiling-a, yetarlicha saqlash va tashish infratuzilmasi, shuningdek, qayta ishlash darajasining pastligi tufayli katta miqdorda ne’matlar isrof qilinadi. Oqibatda jahon bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlarining qariyb uchdan bir qismi nobud bo‘ladi. Bu jami ishlab chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotlarining 1,5-2 mlrd tonnasi chiqindi sifatida tashlab yuboriladi, demakdir. Vaholanki, insoniyat yo‘qotadigan oziq-ovqatning chorak qismi butun dunyoda ochlik muammosini hal qilishga yetadi. Ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda har yili 3 mln tonna oziq-ovqat chiqindiga tashlanadi. Odamni seskantiruvchi raqam-a, shunday emasmi?!

Chiqindilar atrof-muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatishi ma’lum. Hozircha mamlakatimizda chiqindilarni yo‘q qilish bo‘yicha an’anaviy usul (poligonlarga ko‘mish) amal qilmoqda. Bu holatda zaharli moddalar tuproq, yerosti suvlari, havo va umuman, atrof-muhitni ifloslantiradi. Metan va boshqa issiqxona gazlari ham iqlimga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuni e’tiborga olib, Milliy strategiyaga maishiy chiqindilarni 50 foizga qisqartirish vazifasi kiritilgan. Maishiy chiqindini qayta ishlash va undan ekologik toza mahsulot ishlab chiqaruvchi klasterlar tizimini joriy qilish ishlarini ham kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

Qahramon shoirimiz Abdulla Oripov bir she’rida Yer sayyorasini “kurrayi qutlug‘” deb alqaydi. Mana shu birgina ibora zamirida ona zamin naqadar aziz va mo‘tabar ekani haqida ulug‘vor hikmat yotadi. Ma’lumki, har bir hikmat asriy tajriba va xulosalar samari o‘laroq dunyoga keladi. Shu hikmat har birimizni ogohlikka chorlamog‘i lozim.

**Olimjon DAVLATOV**
**suhbatlashdi.**



**Hatto oddiy kapalakning parvozi uchun ham butun bir osmon kerak.**

**Pol KLODEL**

AYOZ, CHORIG‘INGNI UNUTMA!

# GUGURT NARXIGA TENG QADR






**Rahmatli ammam Halima Hasan qizi 1906-yil tug‘ilgan edi. 28 yoshida qishloqda tashkil qilingan ilk kolxozga kiradi va 32 yil ishlab, 6 so‘m bilan keksalik nafaqasiga chiqadi. Bu pulga o‘sha vaqtda – o‘tgan asrning oltmishinchi yillari boshlarida bir yarim kilo go‘sht bergan.**

“Kolxozda ish og‘ir edi – erkaklar qatori ishlardik. Brigadirlar boshimizda qamchi o‘qtalib turishardi. Qish bo‘yi odamlarning molxonalaridagi go‘ngni dala boshiga tashirdik. Ikki ayol beli bukilguncha og‘ir zambilni ming azob bilan dalaga eltardik. Ekish vaqti texnika kamligidan qo‘limizdan ketmon tushmasdi. Unib chiqqan g‘o‘zani yaganalashdan boshlab toki terimgacha otizdan chiqmasdik – go‘ng tashlangan otizni yovvoyi o‘tlar bosib ketardi. Paxta terimi kuz boshlamasidan qora qishgacha cho‘zilardi. Qor tagida qolgan ko‘raklarni terib, paxtasini sitib olardik... Shu ishimizga yarasha haq bersa go‘rga! Kolxoz “ish kuni” uchun bir kilo bug‘doy berardi, xolos. Agar paxta rejasi bajarilmasa uyam yo‘q. Ish haqini pulda berish elliginchi yillar ikkinchi yarmida boshlangan. Undayam bir oy tinmay ishlab, bir qop unga zo‘rg‘a yetadigan pul olardik. Shunday zamonlarni ko‘rdik”.

Bu gaplarni rahmatli ammam ko‘p, keyinchalik ham (hayotda ko‘p zahmatlar chekkan ammam salkam to‘qson yil umr ko‘rdi) afsuslar bilan so‘zlab berardi.

Rahmatli onam urushdan qaytgan otamga turmushga chiqqan kunidan boshlab kolxozchiga aylangan. To‘ng‘ich farzandi Otaxon akam bir yoshida bevaqt vafot etgan ekan. Onam eslardiki: “Qo‘limda emizikli bolam bilan har kun saharda otizga chiqaman. Aksar ayollarning qo‘lida bolasi bor. Besh-o‘n chaqaloqni keksaroq bir kampir dala boshida boqib o‘tiradi. Bolalar yig‘laganida emizib kelish uchun besh daqiqa vaqt berishadi.

Bir kuni bola qarab o‘tirgan kampir chalg‘igan, mening bolam ishtonini ho‘llab, shu holida uxlab qolgan. Kechqurun issig‘i ko‘tarilib ketdi, o‘zimizcha davolagan bo‘ldik (u vaqtlari do‘xtir degani qayda). Issig‘i tushmay, badani ko‘karib ketdi. Bechora bolamni kolxoz degan balo yedi”.

Qishlog‘imizda Riyimboy “pot-pot” degan kishi bo‘lardi. Butun umr kolxozda traktorchilik qilgan. Uning ayolining bir oyog‘i yo‘q – ulama “yog‘och oyog‘i” bilan yashab o‘tdi. Keksalar aytishardiki, shu ayol ikki yashar go‘dak vaqtida onasi uyda qaraydigan odam yo‘qligidan o‘zi bilan dala boshiga olib borgan. G‘o‘zani begona o‘tlardan tozalagan vaqtida qizalog‘i boshqa bolalar bilan dala chetida o‘ynab charchab, paykalda uxlab qoladi va g‘o‘za qator oralariga o‘g‘it berayotgan traktor uning bir oyog‘ini uzib ketadi...

Otam qishloqda birinchi bo‘lib traktor haydagan. Qishda traktorlarni o‘n besh chaqirim uzoqdagi “MTS” degan idoraga olib borib, ta’mirlashgan. Har kuni tongda piyoda yo‘lga chiqib, o‘sha idoraga borib, kechqurun qaytishgan. Urush boshlanishi bilan hukumatning ishga yigirma daqiqa kechikkanlarni mahkamaga tortish haqidagi buyrug‘i chiqadi va otam aynan 22 daqiqa kechikkani uchun 6 oyga qamaladi. Xiva shahridagi qamoqxonada bir oy yotgach “aybimni qonim bilan yuvaman” deb ariza yozib, urushga ketadi va Berlingacha boradi.

Otam 44 yil mehnat staji bilan qarilik nafaqasiga chiqdi. Pensiyasi 96 so‘m edi. Bu pensiya bilan katta ro‘zg‘or qozonini qaynatib bo‘lmasligini anglab (bu paytda kolxoz deb sog‘lig‘ini yo‘qotgan onam og‘ir xastalikka chalingandi), yana o‘n yil ishladi. So‘ng urush ishtirokchisi sifatida nafaqasiga ozroq qo‘shishdi – 108 so‘m bo‘ldi.

...Xrushchev tomonidan “Kommunizm quruvchisining axloq kodeksi” qabul qilingan, “Amerikani quvib o‘tamiz” shiori kun tartibiga chiqqan, 1980-yilda hamma kommunizmda yashaydi, degan targ‘ibotga zo‘r berilgan zamonlarda – 1964-yili maktabga oyoqyalang borganman. Bu paytda uch opam ham o‘quvchi edi. Otam “qizlarning ko‘ngli nozik bo‘ladi”, deb yoz oylaridagi maoshidan ularga kiyim-kechak olib bergan. Menga navbat kelganida puli qolmagan. Avgust oyi uchun maosh (70 so‘m atrofida edi) olgunicha biror hafta maktabga yalangoyoq qatnab yurdim.

O‘sha yillari barcha oilalarda bir an’ana bo‘lardi. (Buni hozirgilar tilida “tejamkorlik” desak ajdodlarimiz ustidan kulgan bo‘lamiz). Oilada to‘ng‘ich qizga tor, kalta kelib qolgan kiyimni singlisi, undan so‘ng yana bir singlisi kiyib to‘zdirardi. Mendan katta uch opam borligi uchun ularning kiyim-kechagi shu tariqa biridan biriga o‘tar, bu bir o‘zi ishlaydigan otam uchun juda qulay – oydan oyga ro‘zg‘or qozonidan ortmaydigan maoshini tejashga imkon berardi. Mendan keyingi ukalarim barchasi qiz bo‘lganligi uchun tor, kalta kelib qolgan kiyimlarim (bo‘z ko‘ylak, cholvor ishton, tagi yeyilgan tufli) tog‘amning mendan bir yashar kichik o‘g‘liga nasib qilardi. (Shu eski-tuski kiyim uchun tog‘am onamga bir qop jo‘xori bergani esimda).

Maktabga borgan tengqurlarimning yangi liboslari bir yil o‘tmay yamoq ko‘ra boshlardi. Yamoq solingan kiyimda yurish o‘tgan asrning saksoninchi yillarida ham odatiy hol edi. Buning uchun hech kim kulmas, chunki yamoq solinmagan kiyim kam topilardi.

Hozirgi avlod tushunmaydigan “chegachi” degan kasb egasi bo‘lardi. Chegachi singan idish-tovoq, kosa, piyola, choynakka chega solardi. Charxlangan mis simdan chandib, qandaydir yelim suyuqlik bilan butlab berardi.

Chegachilik kasb sifatida o‘tgan asr adog‘ida o‘z-o‘zidan yo‘qolib ketdi. Hozirda biror idishga sal zaxa yetsa “Siniq idish barakani qochiradi”, deb tashlab yuborishadi. Keksalarning aytishicha, bu odat qadimda – yurtimizda ulkan saltanatlar qad rostlagan, farovon davrlarda paydo bo‘lgan. Sovet davriga kelib esa... bu odat unutilgan va mustaqillik yillarida yana qayta tiklandi.

Yana eslayman. Elatimizda amakimiz mulla Umar buvadagina ikkita gilam bo‘lardi. Amakimiz qo‘y boqib, junini Toshhovuzga olib borib sotib, shu yoqdan gilam keltirgan ekan. Bu gilamlarni uy devoriga osib, maqtanishni yaxshi ko‘rgan. Otam 1968-yili kolxozdan bir yillik mehnati uchun 780 so‘m “yillik puli” olgach gilam xarid qilgan. Hazorasp bozoriga borib, olibsotardan bir gilamni 500 so‘mga olganmiz. (O‘sha vaqtda bu gilam Xivadagi gilamchilik fabrikasida to‘qilar, ammo do‘konlarda sotilmas, ikki hissa bahosiga qo‘ldan topilardi). Bu gilamda o‘tirish bizlarga nasib qilmadi, qo‘lda bosilgan kigiz ustida bolaligimiz o‘tdi – gilam 1980-yillargacha uyimiz devorida osilib turdi.

U uyimizdagi yagona jihoz edi.

Hozir turli o‘lchamdagi gilam va gilamchalarni dahlizga ham to‘shashadi. Eng kambag‘al hisoblangan xonadonda o‘ntacha gilam bor.

Bizlar ta’lim olgan boshlang‘ich maktab loydan tiklangan besh xonali bir bino edi. Osmondan to‘rt tomchi yomg‘ir yog‘sa sinf xonasining chipta shiftining loysuvog‘i partalar ustiga “tap-tap” tushar, xonaning chakka o‘tmaydigan bir burchagida siqilishib, darsni davom ettirardik. O‘sha maktab bizdan keyin yana yigirma yil – 1990-yillargacha faoliyat yuritdi. Ammo tomi shifer ko‘rmadi. Umuman, odamlar uylarini shifer qilishga keyin – istiqlol arafasida kirishdi. Uy devorlari, ichkari xonalarini zamonaviy ko‘rinishda suvoq qilish ham shu zamonlarda asta-sekinlik bilan boshlangan (Hozirda esa qad rostlagan imorat borki, “yevrota’mir” qilinyapti).

Yengil mashinalar jamoa xo‘jaliklari, idora-tashkilotlar iltimosnomasi bilan tuman partiya qo‘mitasi byurosi qaroriga ko‘ra mukofot tarzida ajratilardi (Atamasi mukofot bo‘lgani bilan baxti chopgan odam uni naqd pulini to‘lab olardi).

O‘sha yillari kelin tushiradigan xonadonlar baxmal ko‘rpa-to‘shaklarni sep qilishni rusumga kiritishdi va baxmal “defitsit” matoga aylandi. To‘y qiladigan oilaga rayqo‘mning byuro qarori bilan o‘n besh metrcha baxmal berilganiga, ishonasizmi? Olti million tonna paxta va yana necha yuz ming tonna pilla yetishtiradigan xalq bir parcha matoga zorligi qaysi qoliplarga sig‘adi? (Kulgili tomoni shuki, o‘tgan asrning 90-yillari oxirida yurtimizga videomagnitafon degan matoh kirib kela boshladi. Yaponiya, Janubiy Koreyadan keltirilgan ushbu elektron matohlarni ham rayqo‘mning byurosi ilg‘orlarga taqsimlashdan orlanmagan).

...O‘tgan asrning saksoninchi yillariga dovur to‘y davralarida osh yoki boshqa taom “uchovora”, “to‘rtovora” tarzida tortilardi. Ya’ni, bir tovoq osh uch yoki to‘rt kishi oldiga qo‘yilardi. Ikki kishiga bir tovoq osh tortish rusum bo‘lganiga ko‘pi bilan chorak asr bo‘ldi. Hozirgi to‘y dasturxonidagi to‘kinlikni ko‘rib, o‘sha davrni beixtiyor eslayman. Dasturxonga non bilan jiyda, turshak qo‘yilardi, xolos. Sal imkoni bor odam bir hovuch pechakqand deganidan sochardi. Shishali mineral suv anqoning urug‘i bo‘lib (uzoq Gurjistondan keltirilgan), u hamma mehmonlarga ham ravo ko‘rilmasdi.

Bizning qishloqdagi kolxoz tuman-u viloyatda eng ilg‘orlardan sanalardi, ammo aksar odamlarning kundalik ovqati suyuq taomlardan nari o‘tmas, nonushta bilan tushlik esa oddiy choy va nondan iborat bo‘lar, osh haftada bir marta – yakshanba kechqurun pishirilardi. Palovni orziqib kutardik. Hatto, palov yeyiladigan bozor kuni haqida latifa ham to‘qilgan. Ya’ni, shanba kuni ovqat pishirilmaydi, chunki ertaga palov yeyishadi. Dushanbada yana qozon suvga tashlanadi – sababi kecha palov yeyishgan.

Hozirgi avlod kunora va hatto, kunda osh yemasa taomlanganday bo‘lmaydi. Va yana tushlig-u kechki ovqatlanish u yoqda tursin, ko‘pgina xonadonlarda nonushtada ham issiq taom yeyish odatga aylangan – bunga oila iqtisodi imkon yaratgan.

Aytaversak, hozirgi davr bilan solishtiraversak gap ko‘p. Aslida taqqoslashga ham uyalasan kishi.

Daromad va narxlar o‘rtasidagi tafovut borasida bir misol keltiraman. Rahmatli ammamga ravo ko‘rilgan o‘sha eng minimal pensiya – 6 so‘mga bir yarim kilo go‘sht berardi, deb aytdim. Hozirda belgilangan (uyam hech qayerda ishlamagan, staji yo‘q fuqarolarga) eng kam pensiyaga salkam o‘n kilocha go‘sht xarid qilish mumkin.

Otam rahmatli qirq yildan ortiq ishlab oladigan pensiyasi bilan o‘zim oladigan nafaqa miqdori va uning xarid quvvatini taqqoslasam deyarli ½ nisbatni ko‘raman.

Bularni nega eslayapman? So‘nggi paytlarda ijtimoiy tarmoqlarda SSSR davrini maqtash an’anasi ko‘zga tashlanmoqda. Sobiq tuzumni maqtaydigan nokaslar o‘z iddaolarini “O‘sha vaqtda gugurt bir tiyin edi” degan gap bilan boshlashadi. To‘g‘ri, gugurt bir tiyin edi, ammo o‘sha davrda insonning qadr-qiymati qanchaga baholanardi?

Sovetlar yangi davlat qurganidan o‘n besh yil o‘tib – 1932-yilda fuqarolarga pasport berishni joriy qilishgan. Unda ham g‘arbiy chegaraga yaqin hududlar hamda yirik shaharlar aholisiga pasport berilgan. Boshqalarga bu hujjat 1962-yildan boshlab berilgan. Qishloqda o‘sgan yigit-qizlarning pasport olishi uchun “kolxozda kamida uch yil ishlash me’yori” amalda bo‘lgan.

Pasporti bo‘lmagan fuqaro ko‘chadagi uy hayvoni qatorida edi. Uning haq-huquqi yo‘q. Ajablanarlisi, ana shu shaxsini tasdiqlovchi hujjatga ega bo‘lmagan millionlab fuqarolar har besh yilda mahalliy kengashlarga o‘tkaziladigan saylovlarda qatnashavergan. Ularning qishloq kengashlari daftarlaridagi ism-sharifi go‘yo hujjat o‘rniga o‘tgan.

...O‘sha “gugurt bir tiyin bo‘lgan” davrda umrining deyarli yarmi kechgan fuqaro o‘laroq yuqoridagi aniq misol, raqam va faktlarni keltirdim.

Menimcha, boshqa izohga hojat qolmadi.

**Ro‘zimboy HASAN,**
**O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi**

IBRAT

**Yozyovonda uni Mahmud hoji deb e’zoz va ehtirom bilan tilga olishadi. U kishi o‘n farzandli katta oilada tug‘ilib o‘sgan. Otasi Zokir hoji qishloqda nom qozongan imoratsoz usta bo‘lib, joyi kelsa, qo‘li qisqaroq odamlarga beminnat, tekinga xizmat ko‘rsatgan. Hatto ba’zi ehtiyojmand oilalarga qurilish ashyolarini o‘z hisobidan olib bergani, uyini butlab berganiga el guvoh. Otaning bunday serhimmatligini ko‘rib ulg‘aygan farzandlar ham boshqalarga yordam qo‘lini cho‘zishga odatlandi.**



# OTAXONNING MAKTABI

Bu yog‘ini so‘rasangiz, Mahmudjon ota o‘smirlik yillarida tengdoshlari bilan 6-7 chaqirim olisdagi maktabga borardi. Endi bir tasavvur qilib ko‘ring, qishda qor, bahorda loy, kuzda goh yomg‘ir, goh tuproq kechishga to‘g‘ri kelgan. O‘shanda u kishi bir kun kelib tadbirkor bo‘lsam, Qumqishloqqa bir maktab qurib beraman, deb niyat qilgan shekilli, keyinchalik yelkasiga omad qushi qo‘nib, mustaqil yurtimizning omadli tadbirkori bo‘ldi. Gaz idorasida yuk tushiruvchi, paxta titish sexida oddiy ishchi bo‘lib ishlab, besh-to‘rt so‘m jamg‘arib, qishlog‘iga yangi uskunalar olib keldi va ko‘p o‘tmay ko‘rpa-to‘shak uchun toypaxta chiqara boshladi. Halol mehnat ortidan yirik tadbirkor bo‘ldi.

2002-yil boshida tuman xalq ta’limi bo‘limi mudiri Ismatulla Qahhorov qabuliga kirib, Qumqishloqda maktab qurish taklifini bildirdi. Bu tashabbus, albatta, tuman va viloyat mutasaddilariga ma’qul keldi. Natijada, Qummahalla (hozirgi nomi Qoziliqqum)dan bir gektar yer ajratildi. Bu joy yantoqzor bo‘lib, to‘rang‘i bosib yotardi. Darrov hasharchilar yig‘ilib, o‘roq-ketmonni ishga solib, maydonni tozalashdi. Bino tamal toshini tadbirkorning otasi Zokir hoji qo‘ydi va o‘g‘lining savobli ishiga fotiha berdi. Ish qizg‘in boshlanib, 2003-yil avgust oyida maktab bitdi. Ikki navbatda o‘qiyotgan 5-maktabdan yangi 34-maktabga 270 nafar o‘quvchi ko‘chib o‘tdi.

2014-yilga kelib maktab qoshida zamonaviy sport zali, 2020-yilda esa yana 270 o‘rinli yondosh bino qurildi. Shu yillar davomida ilm maskanini 200 nafardan ziyod o‘quvchi bitirdi. Ba’zilari yurtimiz va chet el oliy o‘quv yurtlarida o‘qiyapti, ba’zilari turli tashkilot, korxonalarda ishlab, el-yurt xizmatini qilyapti.

Mahmud hojining ilm-fan ahliga, adabiyot va san’at kishilariga ham mehri bo‘lakcha. Sovet zamonida qatag‘on va quvg‘inga uchragan hamqishloqlari – ota-o‘g‘il Mulla Umarjon Mahdum G‘urbatiy va Mulla Mahmudjon Majruh qalamiga mansub “Devoni G‘urbatiy”, “Bayozi Majruh”, “Odamoxun” kitoblarining nashriga homiylik qildi. Kitobsevarlar bu kitoblarni qo‘lma-qo‘l o‘qimoqdalar.

Tadbirkorning oilasi ham havas qilgulik. To‘rt o‘g‘lining uch nafari nufuzli korxonalarda dasturchi, kenjasi o‘quv markazini boshqaryapti. Ular o‘z odobi, bilimi va dunyoqarashi bilan ko‘p yoshlarga namuna bo‘la oladi.

E he, u kishining el og‘ziga tushgan ezgu amallarni bir-bir sanasangiz, kompyuterning quvvati yetmaydi.


So‘ngso‘z o‘rnida mustaqil Vatanimizda Mahmud aka kabi xalq koriga yaraydigan, insonlarning og‘irini yengil, mushkulini oson qilishga bel bog‘lagan halol tadbirkorlar ko‘payaversin, deymiz!

**Malik Boy MUHAMMAD**
*Yozyovon*

JAHON AYVONIDA

## AHMAD AL-SHAR’A SURIYANING O‘TISH DAVRI PREZIDENTI

**Suriya muvaqqat hukumati rahbari Ahmad al-Shar’a o‘tish davri prezidenti deb e’lon qilindi. Shuningdek, yangi hukumat Bashar Asad davrida – 2012-yilda qabul qilingan Suriya konstitutsiyasini bekor etdi va “Suriya inqilobining g‘alabasi”ni e’lon qildi.**




Bundan tashqari, Suriya muvaqqat hukumati armiya va xavfsizlik xizmatlarini tarqatib yubordi, ularning o‘rniga fuqarolar xavfsizligini ta’minlaydigan yangi idora tashkil etiladi.

Yangi hukumat vakillari Baas partiyasi (Asad boshqargan) va Milliy taraqqiyparvar front koalitsiyasini taqiqladi. Ularni boshqa nom ostida qayta tashkil etish man etildi va barcha aktivlari davlatga qaytariladigan bo‘ldi.

## TRAMP FARMONLARINI BEKOR QILMADI

**Tramp federal yordam dasturlarini muzlatish to‘g‘risidagi farmonlarini bekor qilmadi. Bu haqda AQSh prezidentining matbuot kotibi Kerolayn Levitt The New York Times gazetasiga ma’lum qildi.**



Uning tushuntirishicha, boshqaruv va byudjet idorasining faqat Tramp farmonini tatbiq etish kerakligi izohlangan memorandum bekor qilingan.

Levittning so‘zlariga ko‘ra, memorandumning bekor qilinishi sud ishiga bog‘liq. 21-yanvar kuni Trampning ushbu qaroriga qarshi Vashingtondagi sudga da’vo arizasi tushgandan so‘ng federal sud farmonni vaqtincha to‘xtatib qo‘ygan edi.

## ILON MASK NOBEL MUKOFOTIGA NOMZOD

**Amerikalik tadbirkor Ilon Mask tinchlik yo‘nalishi bo‘yicha Nobel mukofotiga nomzod qilib ko‘rsatildi.**




Bu haqda Yevropa parlamentining sloveniyalik deputati Branko Grims X ijtimoiy tarmog‘ida xabar berdi.

Grims o‘z so‘zlarining isboti sifatida Nobel institutining Ilon Mask nominantlar ro‘yxatiga kiritilgani haqidagi tasdiqnomani havola qildi.

Mask so‘z erkinligi va inson huquqlari himoyasiga qo‘shgan hissasi uchun nomzod bo‘lgani aytilmoqda. Uning qilgan ishlariga muayyan misollar keltirilmagan.

## QUYOSHDA ULKAN YORIQ



**NASA olimlarining aniqlashicha, Quyoshda katta yoriq paydo bo‘lgan, shu sababli Yerga kuchli magnit bo‘roni yopirilib kelmoqda.**

Ertaga sayyoramizga quyosh shamoli yetib keladi, bu esa magnit bo‘ronini yuzaga keltiradi.

## TOSHBAQA UCHUN HAYDOVCHIGA JARIMA

**Ekvadorda toshbaqa bilan to‘qnashgan haydovchiga “otning kallasiday” jarima to‘lash majburiyati yuklandi.**

Galapagos orollarida erkak kishi ulkan toshbaqani urib yuborib, uni halok qildi. Atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasi haydovchining noyob hayvonlarga nisbatan tegishli xavfsizlik choralariga rioya qilmaganligini aniqladi. Natijada, unga 13248 dollar jarima solindi.



# KELAJAK YOSHLAR QO‘LIDA. YOSHLAR-CHI?..

Boshlanishi 1-sahifada.

## KIMGA BOY BERYAPTI?

Yengil-yelpi o‘ylaydigan, evolyutsiyadan ko‘ra revolyutsiyani afzal deb hisoblaydigan, “alifni kaltak deyolmaydigan”, adabiy tilni o‘zlashtirmagan, o‘zlarining ta’birlari bilan aytganda, “publikaga o‘ynaydigan”, moddiy manfaat yo‘lida na xalq, na millat, na davlatni yuzxotir qilmaydigan, kitob o‘qish haqida jimjimador so‘zlar aytishni qotirsa-da, amali bo‘lmagan, “nufuz” so‘zi bilan “nufus” so‘zining farqiga bormaydigan, biror-bir yomon xabarni tarqatish, masalan, o‘z joniga qasd qilish haqidagi xabar, ayni vaqtda uning targ‘ibiga xizmat qilishi mumkinligini hisobga olmaydigan bloger “hamkasblar”ga boy berilmoqda.

Bu borada ijobiy yechim bormi?

Avvalo, bir narsani tan olaylik: biror-bir voqea-hodisani tezlik bilan jamoatchilikka yetkazishda axborot texnologiyalarining ahamiyati chindan beqiyos. Internet aloqasi, ijtimoiy tarmoqlar, zamonaviy smartfonlar ommaviy axborot vositalari uchun yanada qulay imkoniyatlarni tug‘dirgan. Tezkor axborot tarqatish borasida juda qisqartirib aytganda birgina muxbir, bir teleoperator, bir montajchi, bir muharrirning ishini qo‘lida smartfon tutgan bir kishi bemalol bajarayotgani ham bor gap.

Bu esa asli kasbi boshqa bo‘lsa-da, daromadi yaxshi bo‘lgani bois biror-bir ijtimoiy tarmoqda o‘z sahifasini ochib olgan ayrim uddaburon kimsalarga qo‘l kelmoqda.

Axborot tarqatishdagi nazorat esa havas qilarli ahvolda emas. Shu bois bunday toifalar ma’lumotni tekshirish, unga aniqlik kiritish, sababini o‘rganish borasida o‘ylab ham o‘tirmayapti. Falon joyda yetti kishi tomonidan zo‘rlanganini aytgan, o‘zini tomdan tashlab joniga qasd qilgan kimsalar haqidagi “dod-voy”larni yozib olib, bemalol shov-shuv ko‘tarib yurishibdi. Yuzsizlik shu darajada-ki, zo‘rlanganlik haqidagi da’volar tuhmat bo‘lib chiqqanida ham shoshqaloqlik bilan tarqatilgan axborot uchun uzr so‘ralmaydi. Noto‘g‘ri axborot tarqatganlik uchun jazolanganiniyam eshitmaysiz. Ular avval begunoh yetti erkakni elga sharmanda qilib obunachilar sonini orttirgan bo‘lsa, keyin tuhmat qilgan kelinchakni sazoyi qilib yana axborot tarqataveradi. O‘z auditoriyasi sonini oshirish dardida bo‘lgan boshqa norasmiy axborot manbalari ham bunday xabarlarni hech paysalga solmay tarqatishga qo‘shilgani natijasida axborot maydonida shunday taloto‘p yuzaga keladiki, o‘zini rasmiy, professional, xolis axborot manbayi sifatida taqdim etuvchilarning o‘sha mavzuda tayyorlagan chinakam xolis axboroti ham bu shovqin-suron ichida quloqqa yetib bormay “jon beradi”.

Bunday hodisalarga har birimiz guvohmiz. O‘zimizga yarasha xulosamiz ham bor: ha, rasmiy axborot manbalarida tezkorlik yetishmayapti. Mutasaddilar bu borada, albatta, chora ko‘rishi shart. Yo‘qsa, “haqiqat kovushini kiyguncha, yolg‘on dunyoning yarmini aylanib chiqaveradi”.

## BAHONA IZLOVCHILARGA AYTILAR SO‘Z

Axborot yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatayotgan jurnalistni jug‘rofiy maydonlar emas, axborot hududlari qiziqtirishi lozim. “Mavjud moddiy-texnika bazasi eskirgan”. “Mamlakatning har bir puchmog‘ida faoliyat yuritadigan xodimlar yo‘q”. “Buncha xodimlarni saqlashga mablag‘ yetishmaydi”, deb yozg‘irishni bas qilib, imkon izlagan ma’qul. Ular yetarli.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-iyunda e’lon qilingan “Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta’minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroridan so‘ng butun mamlakatdagi deyarli barcha tashkilot va muassasalar, hatto xususiy tarmoq yo‘nalishida faoliyat yuritayotgan subyektlarda ham axborot xizmati tashkil etilib, matbuot kotibi lavozimi joriy etilgan.

Turli bahonalarni ro‘kach qilib, tezkor axborot tarqatishni paysalga solayotgan hamkasblar uchun eng avvalo, mana shu omil ulkan imkoniyat, aslida. Qolaversa, norasmiy axborot manbalari foydalanayotgan matoh – texnik jihatlari tasvirga olish uskunasi bilan barobar, hatto ziyoda bo‘lgan smartfonlar hammaning qo‘lida bor. Unutmaylik, smartfon ayni vaqtda tasvirga olishi, ovoz yozishi, montaj qilishi, hatto to‘g‘ridan-to‘g‘ri efirga uzatishni ta’minlashi mumkin.


## GAZETA-JURNALLAR-CHI?

Fikri ojizimizcha, texnologik taraqqiyot tufayli bosma ommaviy axborot vositalarining tezkor xabar tarqatishdagi samaradorligi to‘liq yo‘qqa chiqdi. Shuning uchun bugungi gazetalarda “Falon maskanda falonchi bilan bo‘lib o‘tgan ijodiy uchrashuvdagi fikr-mulohazalar va kuy-qo‘shiqlar jamlanganlarda ulkan taassurot qoldirdi”, degan mazmundagi xabarlar vaqtni ham, pulni ham havoga sovurishday gap.

Shuning uchun o‘quvchilar gazetani ham, jurnalni ham tezkor xabar manbayi sifatida ko‘rmaydi. Axir, qo‘lidagi smartfonga bir nigoh tashlaganda nafaqat yurtimizda, balki dunyoda sodir bo‘lgan ko‘plab hodisalardan juda kam xarajat hisobiga xabardor bo‘lish imkoni mavjud.

## BOSMA OAV XABAR TARQATMASIN(MI)?

Shunday bo‘lgani ma’qul. Xabar tarqatishni elektron OAV davom ettirgani samaraliroq. Har qancha vaj keltirmaylik, buni hayot isbotlab bo‘ldi. Ammo bu – bosma ommaviy



axborot vositalari jamiyat hayotida o‘z o‘rnini yo‘qotdi, degani emas. Negaki, xabar janridan tashqari tahliliy xabar janri ham bor. Qolaversa, tafsilotlar ham. Bosma ommaviy axborot vositalari tahliliy xabarlar, maqolalar, chizgilar, tanqid va suhbatlar yo‘nalishida hali ham peshqadam bo‘lishi mumkin.

## NIMAGA E’TIBOR QARATGAN MA’QUL?

“Ma’rifat”, “Ishonch”, “Milliy tiklanish”, “XXI asr”, “Adolat”, “Jadid” singari gazetalarda tahliliy materiallarga alohida e’tibor qaratilayotgani tahsinga sazovor. Ehtimol, biz kuzatib bormaydigan boshqa gazetalarda ham bu borada ishlar sustlashmagandir.

Bugungi gazetaning ham, jurnalning ham axborot oqimidagi eng katta vazifasi o‘quvchilarning tahliliy materiallarga bo‘lgan ehtiyojini qondirish ekanini davrning o‘zi ko‘rsatyapti. Ayrim gazetalarning imkon qadar qisqa, to‘mtoq, maqsad oydinlashmagan maqolalar berishga harakat qilishi, ba’zi gazeta va jurnallarning internetdan olingan materiallar hisobiga to‘ldirilishi ham kulgili, ham ayanchli.

Kulgili jihati shundaki, internetda chiqqan zahoti minglab, ehtimol millionlab odamlar voqif bo‘lgan materialni gazetaga qo‘yish, yumshoqroq qilib aytganda, nodonlikdir.

Demak, bu tahririyatda xizmat qilayotgan, og‘zini to‘ldirib “jurnalistman” deb lof urayotgan kimsalarda loqaydlik paydo bo‘lgan. Salmoqligina pul to‘lab gazeta yo jurnaliga obuna bo‘lgan muxlisga buning evaziga qanday axborot berilayotgani uning uchun qiziq emas. Fojia ham shunda, aslida. Rahmatli ustozimiz Mahmud Sa’diy “Loqaydlikni kechirish mumkin emas, ayniqsa, qo‘liga qalam tutgan kishining loqaydligini”, derdi.

Bir safar ustoz olim Abdulla A’zam bilan ilmiy-metodik, ma’naviy-ma’rifiy, ijtimoiy-siyosiy mavzulardagi jurnallar xususida suhbatlashib qoldik. O‘sha vaqtlarda u kishiga “Fan va turmush” jurnalining mazmunini yanada yaxshilash borasida ko‘maklashish topshirilgan ekan.

– Internetda chiqqan materiallardan ham foydalanish kerak, – deb maslahat bergan bo‘ldi hamsuhbatlardan biri.

– G‘alati-ku, – dedi bu gapga javoban ustoz. – Agar xorijiy internet saytlarini, telekanallarini yoki radiokanallarni eshitib, kuzatib borsangiz, “falon narsa ixtiro qilindi, mana bu ilmiy hodisa sababi aniqlandi, deb xabar bermoqda “Lancet” yo “Nature” jurnali”, deb gapirishadi. Bu nimani anglatishini bilasizmi? Gazetalar ham, jurnallar ham o‘z yo‘nalishida, ilmiy yoki tahliliy materiallarni “ovlash”da qat’iy harakat qilsa, axborot tarqatishda eng tezkor bo‘lgan internetdan “gap olib” o‘tirmasligini anglatadi.

Ustoz bu borada haq edi.



## BU GAPLARNING YOSHLARGA NIMA ALOQASI BOR?

Aniq javoblarga o‘tishdan avval sarlavhada qo‘yilgan savolga javob beraylik. Aslida, yoshlar o‘z oilasi, ota-onasi, ustozlari nazarida bo‘lishi lozim. Afsuski, minglab chaqirim masofalarni yaqinlashtirgan texnik taraqqiyot ustoz bilan shogirdning, ota-ona bilan farzandning orasidagi masofani kun sayin uzoqlashtirmoqda. Mubolag‘a bilan aytganda, bir dasturxon atrofida smartfon titkilab o‘tirgan ota-bolaning biri G‘arbda bo‘lsa, ikkinchisi xayolan Sharqda kezadi. Dildan suhbat qurish, bolaning o‘qishi, o‘zlashtirishi, unga tarbiyaviy o‘git berish, o‘z hayotiy tajribasidan kelib chiqib unga nimanidir o‘rgatish otaning yo onaning xayolida yo‘q. Chunki ikki ko‘zi ham, butun xayoli ham qo‘lidagi axborot qutisi bilan band.

## FARZANDDA HAM SHU AHVOL…

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 2021-yili ma’naviy-ma’rifiy ishlar ta’sirchanligini yanada oshirish borasida o‘tkazilgan yig‘ilishda: “Bugun bolalarimizni maktab, ota-ona yoki institut emas, aksariyat holda qo‘lidagi telefon tarbiyalamoqda. Mobil telefon endi oddiy aloqa vositasi emas, ko‘pincha yot mafkurani tarqatadigan qurolga aylanmoqda. Ma’naviyatimizga mutlaqo begona bo‘lgan zararli g‘oyalar chegarani buzmasdan, bildirmasdan xonadonimizga, jamiyatimizga kirib kelyapti. Soat sayin emas, daqiqa sayin kirib boryapti. Bularning barchasi biz uchun ogohlik qo‘ng‘irog‘i bo‘lib yangrashi zarur”, degan edi kuyinib.

Bugungi aksar oilalarning bundan-da aniqroq manzarasini tasvirlash mushkul.

## AXBOROT OQIMIDA… OQIB KETGANLAR

Bir ish qiling: na darsga, na davradagi suhbatga, na ko‘chadagi harakatga, na atrofida yordam so‘rab termilib turgan nigohlarga emas, qo‘lida tutgan smart-



foniga tikilgan yigit yo qizga diqqat bilan qarang.

Bilasizmi, nimani ko‘rasiz? Oq-qoraning, yaxshi bilan yomonning, gunoh bilan savobning, ma’rifiy fikr bilan mutaassibona qarashning farqiga bormagan bir yoshning axborot makonida o‘z holiga tashlab qo‘yilganini… Adoqsiz axborot oqimida oqib ketayotgan, hatto g‘arq bo‘layotganlarni ko‘rasiz.

Agar bu gaplar lof bo‘lganida, virtual diniy voizlar ta’siriga tushib mazhabini tark etgan, tinch yurt turib, najotni notinch makondan qidirgan, virtual qimor o‘ynab ulkan ofatga yo‘liqqan, giyohvandlar yo o‘g‘rilar yoki fahsh botqog‘iga botganlar tuzog‘iga tushib qolayotgan yoshlar umuman bo‘lmasdi. Bugunning haqiqatiga ko‘ra, yoshlarga nisbatan olib borilayotgan axborot xurujiga qarshi kurashish ishlarini jadallashtirish shart.

## XO‘SH, NIMA QILMOQ KERAK?

“Butun dunyo kaftdek namoyon” degan so‘z bugun smartfon misolida chiroyli tashbehga emas, aniq voqelikka aylandi. Bu omilning ijobiy jihatlarini sanab o‘tirmaymiz. Salbiy jihatlariniyam nomma-nom aytish shart emas. U orqali yetishi mumkin bo‘lgan zararlardan qanday saqlanish borasidagi choralar haqida mulohaza yuritgan ma’qulroq.

Keskin choralarga ko‘nikib qolgan ayrim kishilar barchasini birdan o‘chirib qo‘ya qolishni tavsiya etishadi. Ammo bu noto‘g‘ri. Axborotni yashirgan emas, boshqargan yutadi. Demak, axborot iste’molini boshqarishni o‘rganish, axborot manbalarining xalq manfaatiga zid qadamlarini qat’iy nazorat qilishni faollashtirishimiz shart. Ana shunda yot g‘oyalar hujumiga uchrayotgan yoshlarga to‘g‘ri ma’noda ko‘mak bera olgan bo‘lamiz.

## SALBIY AXBOROT OQIMIDAN QANDAY HIMOYALANISH MUMKIN?

Salbiy axborot deganda sog‘lom ma’nodagi tanqid tushunilmaydi. Yozilganlarni o‘qib, yana senzura qilish targ‘ib etilayotgan ekanda, degan fikrga borish ham xato. Bugungi ommaviy axborot vositalarida tanqidga yo‘l berilmayapti, degan qarashlarga ham qo‘shilmaymiz.

Bugungi jamiyatda yetarlicha, hatto keragidan ortiq tarzda tanqid mavjud. Aksariyat tanqidlar ortida manfaatlar to‘qnashuvi ham uchraydi. Demak, bu – noxolis tanqid.

Kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, noxolis tanqid bobida asosan internet saytlari, ijtimoiy tarmoqlardagi ayrim sahifalar o‘ta faol. Jurnalistika sohasining asosiy mezoni bo‘lgan xolislik prinsipi ularga begona.

Bugun tanqidga nishon bo‘lmagan biror mansabdor shaxs, korxona yo muassasa qolmadi hisob. Xorijdan turib virtual olam imkoniyatlaridan foydalangan holda, davlat va jamiyat arboblariga, diniy ulamolarga, elning obro‘li shaxslariga qilinayotgan tuhmatlar adoqsiz. Eng ajablanarli jihati, bu virtual voizlarning muxlislari mamlakat ichida yashaydi. Xorijliklarga buning nima qizig‘i bor, aslida. Internet algoritmi shundayki, oddiygina bitta ma’qullash – layk bosish – o‘sha axborot manbasining yanada ommalashishiga xizmat qiladi.

Vatan haqidagi salbiy materiallar, xalqning obro‘sini to‘kadigan, olimlar va ulamolarni qoralovchi media mahsulotlarga layk bosish shunchaki xayrihoxlik emas, o‘sha yomonlikka qo‘shilish, uni kimlargadir ulashish esa, yomonlikka dalolat qilish ekanini yoshlarga tushuntirishni haligacha eplolmadik.

Bu borada eng avvalo, ziyolilar, o‘qituvchi-murabbiylar, ota-onalardagi loqaydlik hissi bartaraf etilmaguncha (bu omildan faqat shu yo‘l bilan xalos bo‘lish mumkin) ijobiy so‘z aytish amrimahol.

## ENG MUHIM MASALALARDAN BIRI – RADIKAL AXBOROT XURUJIDAN HIMOYALANISH

Demokratik tuzumni harom deb notinch mamlakatlarga borib, o‘zlarining “halol” davlatlarini tuzishni orzu qilgan ayrim radikal kayfiyatdagi yoshlarning bugungi qismati kishini o‘yga toldiradi.

Dunyoviy davlat tuzumidan “qochgan” yuzlab, ehtimol, minglab yoshlarning hayot shami taloto‘plarda so‘nayotgani esa chinakam fojiadir. Buning oldini olishda ommaviy axborot vositalari jonbozlik ko‘rsatishi, qalamkashlar bu kurashni o‘zlarining xalq oldidagi burchi, deb tushunishlari lozim.

O‘zbekning buyuk allomalari qoldirgan nodir qo‘lyozmalar, ilm ahlini hamisha hayratga solgan ilmiy obidalar, haqni botildan, jaholatni ma’rifatdan ajratib bergan ta’limotlar, Imom Moturidiy, Abu Mu’in Nasafiy kabi allomalarning aqida borasidagi ta’limotining yuzaga kelishi, Imom Buxoriy, Imom Termiziy kabi hadis ilmi bilimdonlarining mo‘tabar asarlarni bitishidan ko‘zlangan maqsad nima edi – islomning asl insonparvarlik mohiyatini anglatish emasmi?

Teran fikrli olimlarning bunday ilmiy merosni yaratishdan ko‘zlagan eng ulkan maqsadi: tarkidunyochilik, dinda g‘uluvga ketib haddan oshish, haq yo‘ldaman deb o‘ylab, aslida johilga aylanib qolish, ibodat mezonlarini unutish, diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik masalalarida islomning insonparvarlik ta’limotini suiiste’mol qilish, nohaq qon to‘kish, dinni tijorat vositasiga aylantirish, undan turli xalqlar va millatlarni sarson-sargardon etadigan omil sifatida foydalanishga yo‘l qo‘ymaslik emasmidi?

Yo‘qsa, bu ilmiy asarlarning bitilishiga ne hojat bor edi?

Ha, bu kitoblar, inson hayotini barbod etish uchunmas, uni jaholat yo‘lidan qaytarish uchun yozilgan.

Komil musulmon o‘z iymoni bilan, radikal – mutaassib musulmon esa, birovning iymoni bilan ovora bo‘lar ekan.

Nega ziyolilarimiz, jurnalistlar, jamoatchilik faollarining bu borada yodda qolarli, yoshlarga ta’sirli so‘zlarini kam uchratamiz? Tahliliy filmlar, ko‘rsatuv va eshittirishlar, maqola va suhbatlar salmog‘i nega kam?

## CHORASI BOR-U IJROSI YO‘Q AMALLAR SABAB…

Yoshlar axborot ummonida qarovsiz qoldirilmoqda. Puxta tahlillarga, aniq dalillarga tayangan media mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi mavjud talabga javob bermayapti. G‘oyaviy, mafkuraviy bo‘shliq o‘rniga kirib kelayotgan radikalizm balosiga eshiklar aynan axborot manbalari orqali ochilayotgani haqida tuzuk-quruq o‘ylab ko‘rmayapmiz.

Eng yomoni – kalta o‘ylab, kalta yozuvchi “tik-tok”chi avlodga ergashish kerak, degan fikrlarning uchrayotgani va tobora urchiyotgani. Aynan shu sababli diniy, ijtimoiy, huquqiy, siyosiy, iqtisodiy masalalar borasida umumiy vaqti bir daqiqaga ham yetmaydigan video roliklar yaratila boshlandi. Aynan shunday fikrlovchilar tufayli gazetadan, jurnallardan, radio va telekanallardan, internetdagi turli saytlardan kattaroq hajm talab qiluvchi tahliliy janrlar surib chiqarilmoqda. Na mazmun, na mantiq, na izchillik, na xulosa to‘liq bo‘lmagan bunday media mahsulotlarning esa foydasidan ko‘ra zarari ortiq.


Bu boradagi vaziyatni o‘nglash uchun, radikal diniy g‘oyalar, “ommaviy madaniyat” va yot odatlarning urfga kirib ketmasligi va milliylik omillarini mavh etmasligi uchun eng avvalo, axborot maydonini tartibga solish, axborot manbalarining aslida kimga yoki nimaga xizmat qilayotganini aniqlash, ular tarqatayotgan har qanday axborot zamirida Vatan manfaatiga zid bo‘lgan qarashlarning singdirilishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun aniq harakat qiladigan vaqt keldi.

Unutmaylik, yoshlarni radikal voizlar va buzg‘unchi toifalarning axborot xurujidan himoya qilishimiz shart! Yo‘qsa, kelajakni ishonib qo‘llariga topshirishni niyat qilgan yoshlarimiz begona qo‘llardagi o‘yinchoqqa aylanib qolishi hech gap emas.

**Abdulhamid MUXTOROV,**
**O‘zbekiston jurnalistlar uyushmasi a’zosi**

BOQIY MEROS

# ALISHERBEK HOVUZIDAN SUV ICHGAN OLIM



**Bir kuni afg‘onistonlik jurnalist, adabiyotshunos Azizulloh Aral hazrat Navoiy qurdirgan ko‘prik hali-hanuz odamlarga xizmat qilayotganidan so‘z ochib qoldi. O‘sha zahoti “Navoiy ko‘prigi” degan maqola so‘radim. Yozdi. Ko‘prikda ikki ma’no bor: ham ma’naviy, ham moddiy. Moddiy jihati shuki, ko‘prikdan odamlar shu kunga dovur qirg‘oqdan qirg‘oqqa o‘tib turibdi. Ikkinchisi, tabiiyki, shoir yozgan asarlar – bu qalb ko‘prigi. Salkam olti asrdan beri Navoiy asarlari bashariyat qalbiga yo‘l topish uchun ma’naviy ko‘prik vazifasini o‘tab keladi.**

Azizulloh Aral suhbat orasida Alisherbek qazdirgan sardoba va hovuz xususida gapirdi, uyidan yarim chaqirimcha naridagi shu hovuzdan suv ichganidan so‘zladi. Yaxshilik niyatida, endi bu sarlavha va mavzuni qizg‘ondim. Shunda yuqoridagi sarlavha xayolga lop etib urildi. Darvoqe, tarixchi Xondamir Alisher Navoiy hazratlari Hirotdan tashqarida – Andho‘yda bunyod ettirgan “jannatmisol binolar oralig‘ida kavsar misol hovuz ham qurilgan”ini yozgan edi.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Ilmiy kengashda Azizulloh Aral hazrat ijodining Afg‘onistonda o‘rganilishi borasida dissertatsiya yoqladi. Ishtirok etishga imkon bo‘lmadi. Oradan biror oy o‘tib, qo‘lida bir kitob bilan xonamga kirib keldi. Ichida dastxat, tilak, yuz-ko‘zida esa mamnuniyat. Afg‘onistonda chop etilgan o‘zbek mumtoz yozuvidagi bu kitob o‘zi yozgan maqolalari to‘plami – “Navoiy bitiklari izidan”. Quvondim... O‘qidim.

Kitob ikki bo‘limdan tarkib topgan bo‘lib, birinchi qismida o‘zbek tilidagi o‘ttizdan ortiq, ikkinchi qismida esa dariy tilida yozilgan o‘nga yaqin maqola o‘rin olgan. “Ona tilim – hayotim, mening uchun qanotim”. Muallifning bu shoirona so‘zidan ta’sirlandim, rosti. Chunki ona til qismatiga afg‘onistonlik har bir o‘zbek ziyolisi hayot-mamot masalasi o‘laroq qaraydi, kuyinadi, ko‘ksini kerib himoya qiladi. Azizulloh Aral muallimning keyingi yillarda Afg‘onistonda o‘tkazilayotgan “O‘zbek tili bayrami” tashabbuskorlaridan biri ekanini bilaman. Olimning ijtimoiy faoliyati alohida mavzu...

Qo‘limizdagi kitob orqali ham muallifning nafaqat millatparvar, bilimdon olim, balki o‘zbek-afg‘on xalqlari adabiy do‘stligi orasidagi ko‘prik ekanini anglash mumkin. Muallif Navoiy ijodini Afg‘onistonda o‘rgangan, shoir asarlarini nashr qildirgan Said Muhammad Olim Labib, Abdulali Nur Ahroriy, Muhammad Yaqub Vohidiy Juzjoniy, Abdulhay Habibiy, Abdulla Raviyn, Sayd Tojiddin Toshqin Bahoiy, Muhammad Aslam Afzaliy, Nurulloh Oltoy, Mirhusayn Shoh, Abdulhakim Shar’iy Juzjoniy, Rahim Ibrohim kabi qator olimlarni tilga oladi. Bu olimlar ilmiy faoliyati, adabiy talqinlari, tabiiyki, o‘zbek navoiyshunoslarini ham befarq qoldirmasligi kerak. Kitobda Alisher Navoiyning Afg‘onistonda nashr qilingan 50 ga yaqin asari ro‘yxati keltiriladi. Shuningdek, Navoiy asarlarining Amerika kutubxonalaridagi qo‘lyozmalari xususida alohida maqola bor. “Navoiy jahonshumul mutafakkir”. Darhaqiqat, shunday. Ulug‘ shoirning o‘z e’tirofiga ko‘ra:

**Agar bir qavm, yo‘qsa mingdur,**
**Muayyan turk ulusi xud meningdur.**
**Olibmen taxti farmonimga oson**
**Cherik chekmay Xitodin to Xuroson.**

Olim shu misralari negizida shoirning favqulodda iste’dodi va jahonshumul adabiy xizmati xususida fikr yuritadi.

Kitobda, shuningdek, Zahiriddin Muhammad Boburning Afg‘oniston tarixida tutgan o‘rni maxsus tadqiq qilinadi. “Bu olamaro ajab alamlar ko‘rdim, Olam elidin turfa sitamlar ko‘rdim”, degan Boburni muallif “Kobulning shoh me’mori va shoir bog‘boni” deya ta’riflaydi. Shoirning o‘zi obod qilgan, turli daraxtlar, gullar bilan bezagan shahrini yurak-yurakdan yaxshi ko‘rganiga diqqat qaratib: “Uning Kobulga mehr-muhabbati oshiqlik darajasiga yetib borgan” deb yozadi. “Bobur Kobulga shunchalar mehr qo‘yganki, Kobulni Hindistonning darvozasi sifatida umrining so‘ngiga qadar o‘zining yozgi poytaxti o‘laroq asrab kelgan”. Bu mehr-muhabbat afg‘onistonliklar orasida haligacha mash-hur. Garchand oradan besh asrdan ko‘p-roq vaqt o‘tgan bo‘lsa ham xalq: “Toki Kobulda Boburning oromgohi bor ekan, Bobur ham, Kobul ham hargiz xotiralardan ko‘tarilmagay”, deyishadi.

“Navoiy bitiklari izidan” kitobida o‘zbek olimlari, shoirlari, sarkardalari to‘g‘risida fikr-mulohazalar ham davrimizning Navoiy muxlislarini befarq qoldirmaydi. Muallif aytmoqchi, “Hazrat Alisher Navoiy buyuk bir po‘hantun (bilim yurti), bu po‘hantunga kirib o‘qigan muhassil (tahsil olguvchi) so‘zsiz turli bilimlarni egallaydi!”

Inchunin, Azizulloh Aralning o‘zi ham “Navoiy bitiklari izidan” kitobida muhassil o‘laroq olgan bilimlarini, Alisher Navoiy hovuzidan ikkiyoqlama bahramandligini adabiyot muhiblari e’tiboriga taqdim etibdi. Tashakkur. Muborak bo‘lsin!

**Bahodir KARIM,**
**professor**

XOTIRA AZIZ



# QATAG‘ON QURBONLARI

**(Davomi. Boshlanishi o‘tgan sonlarda).**

**Shohidjon Eson Musayev** – 1884-yili Toshkent shahrida tug‘ilgan. Millati o‘zbek. 1917-yili Turkiyaning Konstantinopol (Istanbul) shahrida Turkiya harbiy vazirligi maxsus bo‘limi boshlig‘i yordamchisi – Sharifbeyli tomonidan Angliya foydasi uchun josuslik ishlariga tortilgan. 1922-yili sovet hududiga topshiriq bilan yuborilgan. Shohidjon Eson Musayev aksilinqilobiy tashkilotga kirgan. Yoshlar orasida sovetlarga qarshi millatchilik targ‘ibotini olib borgan. U tashkil etgan aksil-inqilobiy guruhda Oybek, Maqsud Hakimov, Aziz Maqsudov, Mirkarim Qosimov, Homil Yoqubov, Shamsi Abdurahim Sharofuddinov, Mannon Eminov va boshqalar bo‘lgan. 1926-yil Sh.Musayev tomonidan 30 kishidan iborat yoshlarning milliy tashkiloti tuzilgan. 1928-yili u aksilinqilobiy targ‘i-bot olib borgani uchun hibsga olingan. SSSR Harbiy Oliy sudi sayyor sessiyasining 1938-yil oktyabrdagi yig‘ilishida 36 kishi oliy jazoga hukm etilgan, ro‘yxatdagi 26-mahbus Shohidjon Eson Musayev bo‘lgan.

**Davlat Rizayev** – 1903-yili Xorazmning Yangi Urganch shahrida tug‘ilgan. 1920-yilning fevralidan komsomol a’zosi bo‘lgan. 1921-1922-yillari xalq maorifi komissarligi ma’muriy xo‘jalik bo‘lim mudiri, 1922-1923-yillari Komsomol Markaziy komiteti kotibi, 1923-1924-yillari Xorazm Respublikasi Xalq maorifi komissari bo‘lgan. 1924-yil yanvaridan Urganch va Xonqa rayonlarida bosmachilikka qarshi kurashgan, Qoraqum operatsiyasida qatnashgan. 1929-yili Xorazm okrug partiya komiteti kotibi sifatida ishlagan. Moskvada Sverdlov nomli kommunistik universitetni bitirgan. Norin rayon partiya komiteti sekretari, Samarqand shahar partiya komiteti kotibi, “O‘qituvchi va maorif” jurnali muharriri, “Milliy istiqlol” tashkilotining ishtirokchisi, Usmonxon Eshonxo‘jayev boshliq millatchi va trotskiychi guruh a’zosi bo‘lgan. Qoraqalpog‘iston oblasti partiya komiteti kotibi bo‘lib ishlab turgan paytida qamoqqa olingan. O‘zSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi 1-bandi, 67-moddasi bilan ayblanib, 1937-yil 4-avgustda hibsga olingan. 1937-yil 30-sentyabr O‘zSSR Ichki ishlar xalq komissarligi kasalxonasida yurak yetishmovchiligidan vafot etgan. Bu paytda u boryo‘g‘i 34 yoshda edi.

**Abdukarim Abduvahobxo‘jayev** – 1894-yili Marg‘ilon shahrida tug‘ilgan. Farg‘ona shahar O‘sh ko‘chasi 58-uyda yashagan. Millati o‘zbek. U o‘zbek boshlang‘ich maktabini bitirgan. 1921-yildan Marg‘ilon shahar partiya komiteti a’zosi, 1922-1923-yillari Marg‘ilon uyezdi partiya tashkiloti a’zosi bo‘lgan. 1922-1923-yillari Marg‘ilon uyezd partiya tashkiloti raisining o‘rinbosari, 1923-1924-yillari Uchqo‘rg‘on partiya tashkiloti raisi, 1925-1926-yillari Marg‘ilon uyezdi Qo‘shchi soyuzi raisi, 1926-1927-yillari Oltiariq rayon ijroiya komiteti raisi, 1927-1928-yillari Marg‘ilon rayon ijroiya komiteti raisi lavozimlarida faoliyat ko‘rsatgan. U Qo‘qon muxtoriyatining a’zosi, “Sho‘royi islom” va “Milliy ittihod” tashkilotlarining faol a’zosi bo‘lgan. 1936-1937-yillari O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy komitetining 3-kotibi lavozimida ishlagan. 1938-yil 14-oktyabrda Tosh-kentda SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasi sayyor sessiyasida tuzilgan akt Davlat xavfsizlik xizmati katta leytenanti Shishkin Ishchi-dehqon Qizil armiyasi bosh harbiy prokurori, 1-toifali harbiy yurist Shulsanlar tomonidan imzolangan. Otuvga hukm etilgan 36 nafar mahbuslar ro‘yxatida Abdukarim Abduvahobxo‘jayev ham bo‘lgan.

**Azizbek MAHKAMOV,**
**tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori**
**Nigoraxon AKBAROVA,**
**tadqiqotchi**

**(Davomi kelgusi sonda).**

MILLAT FIDOYILARI

# 51 - RAQAMLI MAHBUS

**1937–1953-yillarda mustabid tuzum tomonidan xalqimizning yuz mingdan ziyod vakili qatag‘on siyosati qurboni bo‘lganini yaxshi bilasiz. Ularning otib tashlangani qancha, nohaq quloq qilingani-yu, surgunga jo‘natilgani qancha?! Ayni raqamlarga aniqlik kiritish borasida hamkasblarimiz tomonidan izchil tadqiqotlar olib borilmoqda. Bugungi kun tasavvuriga ham sig‘maydigan ayanchli taqdir egalari orasida atoqli arboblar, ilm-fan namoyandalari, ijodkor ziyolilar, harbiylar, sud-huquq tizimi xodimlari, ishchi-dehqonlar ham bo‘lgan. Taassufki, qatag‘on jodisi nafaqat tergovga tortilgan sho‘rpeshonalarni, balki ularning oila a’zolari, qarindosh-urug‘lari, hatto tasodifiy hamsuhbatlarini ham pajmurda etgan.**


Nomi qatag‘on ro‘yxatida turgan, lekin taqdir chizgilari nazardan pinhon qolganlar qatorida Muhammad Odiliy ismi ham bor. Bu inson kim edi? Biz to uning izini topib, tafsilotlarini aniqlaguncha qanday mashaqqatlarga duch kelganimiz haqda ikki og‘iz to‘xtalib o‘tsak va so‘ngra Odiliy shaxsiga qaytsak, adolatdan bo‘lar.

Xullas, akademik (ustozning oxiratlari obod bo‘lsin) Naim Karimov maslahati va ko‘magi bilan nashrga tayyorlaganimiz besh jildlik “Qatag‘on qurbonlari” xotira kitobida biz bot-bot tilga olayotgan o‘sha mash’um yillar va yo‘llar aks etgan, desak yanglish bo‘lmaydi.

Otuvga hukm qilingan 14 589 nafar qurbon! Millatimizning sovet mus-tamlakachiligi davrida qirg‘in qilingan, sokin turmushi tamomila izdan chiqa-rilgan, olis va sovuq o‘lkalarga surgun qilingan, jismonan mahv etilgan yetuk namoyandalari taqdiri... Bundan ko‘ri-nadiki, 1937-1938-yillarda O‘zbekis-tonda qatag‘on qilingan 40 mingdan ortiq kishidan bor-yo‘g‘i qariyb 15 ming nafarining ism-sharifi aniqlangan, xolos. Qolganlarining esa taqdiri hamon mav-hum.

Ular kechib o‘tgan umrni aniqroq tasavvur qilish va tarixiy adolatni tiklash uchun muhtaram Prezidentimiz ta’kidlaganidek, tadqiqotlar qamrovini kengaytirish kerak. Ayni shu maqsadda ilmiy jamoamiz vakillari bilan 2011-yili Rossiyaning Moskva shahriga ikki marta safar uyushtirdik. Mazkur shahardagi Maliy Karetniy tor ko‘chasi, 12-uyda joylashgan “Memorial” xalqaro tarixiy, ma’rifiy xayriya va huquqni himoya qilish jamiyatining arxividan 1938-yil oktyabrda Toshkentda qatag‘on qilingan 496 nafar o‘zbekistonlik haqida ma’lumot olishga muvaffaq bo‘ldik. Bu O‘zbekistonda otuvga hukm etilganlarning ismi va familiyalari, hukm chiqarilgan sana, otilgan kun ko‘rsatilgan jadval edi...

So‘ngra Rossiya Federatsiyasi Federal xavfsizlik xizmati markaziy arxivi tomon yo‘l oldik. Bir amallab arxivdan mavzuga oid hujjat va materiallarni izlab topish, ulardan foydalanish, ko‘chirmalar olishga



**Muhammad Odiliy (1896–1938)**

muvaffaq bo‘ldik. Avvalroq ham Baxtiyor Rasulov, Elyorbek Xolmirzayev singari olimlar bilan birgalikda bir necha bor xizmat safari chog‘ida ushbu arxivda ishlash imkoniga ega bo‘lgan edik. Shu asnoda arxivda saqlanayotgan SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasining 1938-yil 4–15-oktyabr kunlari Toshkentda bo‘lib o‘tgan sayyor sessiyasi yig‘ilishlari bayon-nomalari bilan tanishdik. Ular bizgacha hali o‘rganilmagan va ilmiy iste’molga kiritilmagan edi.

Hujjatlarga ko‘ra, Oliy sud harbiy kollegiyasi sayyor sessiyasi raisi, harbiy yurist Alekseyevning O‘zbekiston SSR Ichki ishlar xalq komissari, davlat xavf-sizligi mayori Derenik Zaxarovich Apresyanga yo‘llagan talabnomasida 1938-yil 4-oktyabrda 52 nafar mah-busni oliy jazo – o‘limga hukm etib, ijroni zudlik bilan ta’minlash talab qilin-gan. Talabnomada mahkumlarning barchasi nomma-nom keltirilgan. Ism-sharifi sanalgan mahbuslar orasida qahramonimiz – Muhammad Odiliyning familiyasi ellik birinchi bo‘lib ko‘rsatilgan edi. Odiliy ustidan 976562-sonli arxiv-tergov ishi rasmiylashtirilgan. Hukm o‘sha kuniyoq ijro etilib, bu haqda dalolatnoma tuzilgan.

Muhammad Odiliy 1896-yili Toshkent shahrida tug‘ilib, sobiq Kirov rayonidagi Birinchi Koshg‘ar mahallasida yashagan.

Otasi Odil Hojixonov o‘smirlik chog‘lari hunarmandchilik bilan shug‘ullangan. Inqilobgacha otasida uy, bog‘ va 1,5 tanob yer bo‘lgan. Onasi Rixsi Hojixonova “Bolalar uyi” artelida ishlagan.

Muhammad Odiliyning o‘zi O‘zbe-kiston urug‘chilik tayyorlov idorasi bosh-qaruvchisi, xo‘jalik xodimi, yer organlari ishchisi edi.

U o‘n yoshidan boshlab “Katta” mas-jididagi imomdan o‘n yil tahsil olgan, eski usul maktabida o‘qigan, mad-rasa ko‘rgan. 1915-yildan to 1917-yil fevral inqilobigacha rus-tuzem mak-tabida tahsilni davom ettirgan. 1917-yil avgustdan 1918-yil mayga qadar 1-peda-gogika institutida o‘qigan.

1918-1919-yillari Toshkent shahridagi barcha o‘quv muassasalarida “Temir to‘da” jismoniy to‘garagi tashkil etilgan edi. Bu to‘garak avvalida o‘z oldiga yoshlarni yangi usuldagi maktabga jalb etish va eski usul maktabiga qarshi kurash olib borish vazifasini qo‘ygan. Odiliy 1918-yili “Temir to‘da”ning faxriy a’zosiga aylangan-u biroq to‘garakning biron bir topshirig‘ini bajarmagan. 1919-yil o‘rtalarida 45-son maktab huzurida “Temir to‘da”ning bo‘limi bo‘lmish “O‘g‘uzxon ko‘li” ochilgach, bu yerda uch oycha teri oshlovchilar va hunarmandlar orasida savodsizlikni tuga-tish bo‘yicha dars o‘tgani uning tarjimayi holidan ma’lum.

...1923-yili Muhammad Odiliy Moskva-ga xizmat safariga yuboriladi va u yerda Sharq xalqlari institutida tahsil olib, bir yil o‘tgach, Samarqandga chaqirib olinadi. U o‘sha kezlar Samarqand va Jizzaxda besh yil mobaynida partiyaviy ishda faoliyat ko‘rsatgani haqida tegishli manbalarda ma’lumotlar uchraydi. Qahramonimiz ma’lum muddat Kasaba ittifoqida ham ishlab, so‘ngra Samarqand okrug soveti ijroiya komiteti raisi o‘rinbosari bo‘lib xizmat qilgan. 1927-yildan faoliyatini O‘zbekiston Xalq komissarlari sovetida davom ettirgan.

1930-yili kasallikka chalinib, Xalq komissarlari soveti tomonidan Yaltaga yuborilgan va bu joyda ikki yilcha davolangan.

Muhammad Odiliy O‘zbekiston Ichki ishlar xalq komissarligi tomonidan respublikada o‘nglar va trotskiychilar blokida harakat qilayotgan aksilinqilobiy millatchi tashkilotning a’zosi sifatida 1937-yil 29-iyulda qamoqqa olinadi. Bungacha u O‘zbekiston Yer-suv ishlari xalq komissarligi, O‘zbekiston naslchilik idorasi tayyorlov boshqarmasida xizmat qilgan.

Odiliy inson bolasi bardosh berol-maydigan dahshatli qiynoqlar bilan kechgan tergov jarayonida u o‘ziga qo‘yilgan ayblovlarni “bo‘yniga olib”, “avvaliga millatchilik kayfiyatida” bo‘l-gani, 1925-yilda Ikromov tomonidan boshqarilayotgan millatchilar guruhiga kirgani, keyinroq “Milliy istiqlol” aksil-inqilobiy millatchi tashkilotiga tortilgani va uning topshirig‘i bo‘yicha qamoqqa olingunga qadar turli xil sovet-partiya ishlarida jinoyatkorona ish olib borgani, jumladan, respublikadagi chorvachilik sohasida ham jinoiy faoliyati haqida “ko‘rsatma” bergan.

Qatag‘on tergovlarida ishtirok et-gan ikkinchi darajali tergovchilardan biri 60-yillarda Odiliyning yaqin qarin-doshlariga dahshatli bir ma’lumotni yet-kazgan ekan. Uning so‘zlariga ko‘ra, taftish jarayoni va so‘roq-savollar davomida Odiliyning biron-bir aybi isbotlanmagan. Aksincha, u halol va pok, beozor inson sifatida namoyon bo‘lgan. Hatto unga qarshi biror-bir pichoqqa ilingulik guvohlik ham berilmagan. “Shunga qaramay, biz yuqoridan tushgan topshiriqqa ko‘ra, statistika uchun unga nisbatan otuvga hukm qilinadigan aybnoma chiqarishga majbur bo‘lganmiz”, deb o‘ziga xos tazarru keltirgan ekan o‘sha sobiq xodim.

Shunday qilib...

Sobiq ittifoq Oliy sudi harbiy kollegiyasi sayyor sudining 1938-yil 4-oktyabrdagi yig‘ilishida Odiliy o‘z “ayb”larini to‘la “bo‘y-niga olib”, tergovda to‘qilgan uydirma jinoyatlarini “tasdiqlagan”. Sud uni O‘zbekiston Jinoyat kodeksining 58-, 63-, 64- va 67-moddalari asosida otuvga hukm etgan.

**Rustambek SHAMSUTDINOV,**
**tarix fanlari doktori,**
**professor**

VOQEIY HIKOYA

# O‘zingga o‘xsha, qizim!

**Quyi qavatimizdagi xonadonni yaqindagina ijaraga olib, yashayotgan ayolning ovozi o‘tkir ekan. Dam-badam shang‘illagani-shang‘illagan. Tong demaydi, tun demaydi, “ijro”sini boshlayveradi. “Avj”i ham uzoq davom etadi, avval chiyildoq ovozda “nola qiladi”, so‘ng qarg‘anadi, keyin o‘zining sho‘rpeshanaligidan yozg‘irib, faryod chekadi.**

**Eshitmaslikka, e’tibor bermaslikka har qancha urinmay, befoyda – teshik quloq ekan-da. Men-ku, kun bo‘yi ishdaman, boshqa devordarmiyonlar bunga qanday sabr qilyapti ekan-a, deyman. Tushib, tanobini tortging keladi-yu, er-xotin urushi bo‘lsa, deb andisha qilasan.**

Bu safar chidab bo‘lmadi, shang‘illashlar bolalarning chin-qirig‘iga ulanib ketdi. Sabr-toqatim yetmadi. Qiya ochiq turgan ko‘cha eshikni chertdim, eshitmadi. Qattiqroq taqillatganimdan so‘ng o‘ta ozg‘inligidan ko‘zlarining soqqasi va bo‘yin kuraklari bo‘rtib chiqqan, qotmadan kelgan, qoracha, o‘ttiz yoshlardagi juvon qo‘lida bir yarim yoshli qizchani ko‘tarib olgancha asabiy chiqib keldi. Ortidan to‘rt yasharlar chamasidagi, ko‘zlari qizarib ketgan qizaloq ham ko‘rindi.

– Uzr, bezovta qilganim uchun, yuqoridagi qo‘shningizman, – gap boshladim salom-alikdan so‘ng. – Biror yordam kerak emasmi mabodo? Ovozingiz balandligidan bizgacha eshitilyapti...

– Mana bu-da! – to‘rt yasharli qizchasini ko‘rsatib yozg‘ira ketdi, – gapga kirmaydi.

– Bu yosh bola-ku, aldab-suldasangiz bo‘lmaydimi? O‘zingizni ham, buni ham qiynab nima qilasiz?

– E-ey, man aldab-suldamayman! – Seni nima ishing bor degandek yuzlari norozilikdan battar tirishib, bo‘ynidagi tomirlari o‘qlovdek bo‘rtib ketdi. – Bola boshidan, bu tirrancha hozirdan aytganini qildiraman, deydigan ahmoq bo‘lyapti (aybdorini boshiga bir uradi), ko‘ngliga qarayversam ertaga meni sharmanda qiladi...

– Qiziq ekansiz, siz yozg‘irayotgan gaplarga kattalar ham dosh berolmaydi, bu ketishda betini qotirib qo‘yasiz-ku? Axir, onasi bo‘lib sizga erkalik qilmasa kimga qiladi?

– Qaynonam buni aytganini qilaverib tantiq qildi, man bekorchi emasman tilaklarini bajarib turadigan. Buvim bizni royimizga qaramasdi, mana yomon bo‘lmadik. Manam baribir shunga o‘rgataman bu eshakni.

– Ishlaysizmi?

– Ha, manov yonboshdagi kafeda.

– Bolalarga kim qaraydi?

– Ustidan qulflab ketaman. Xabar olib turaman. Shundayam mana bu eshak ukasiga jimgina qarab o‘tirmay derazadan boshini chiqarib, men tomonga qarab “ko‘chaga chiqaman”layveradi, gapga quloq solmaydi.

– “Dom”da zerikadi-da, bog‘chaga bersangiz-chi? Ishingiz-niyam bemalol qilaverar edingiz.

– Birinchidan berish niyatim yo‘q, ikkinchidan ijara haqidan orttirolmaymiz to‘loviga.



Bildimki, ayolning tashvishi boshidan ortgan, uni insofga chaqirish, go‘daklarini suyib, erkalashi charchoqlariga malham bo‘lishini tushuntirish befoyda. Chunki o‘zi ham erkalanib mehr tuymagan. Qattiqqo‘l oilada o‘sgan bolalar kun kelib o‘zlari-da shunday yo‘l tutishlarini isbotlayapti bu ayol ham.

Suhbatimizni anglab-anglamay termilib turgan qizaloqni chaqirdim.

– Bugun nega xarxasha qilding?

– Ukam huv tepada turgan tuflichasini ko‘rib qolib, “obering” dedi, oberdilar. Lekin manikini obermadilar. Manam kiygim keldi, buvijonim obergandilar uni. Bittagina kiysam, keyin qaytarib berardim-ku!

– Oyisi, – deyman obersangiz olam guliston edi-ku, degan ma’noda ayolga qarab.

– Aytdim-ku, aytganini qilishga o‘r-gat-may-man!

– Yur, qizim, biznikiga chiqasanmi? – qo‘limni uzataman “aybdor”ga. U onasining nigohida qarshilik ko‘rmadi shekilli, yugurib kelib, qo‘limni tutdi.

Uyga chiqib, birga chuchvara tugdik. Mittigina barmoqchalari bilan o‘zi yoygan xamirchalar ustiga masalliqlarni binoyidek qilib joylar, men esa tugib barkashga teraverdim. Ora-sira “barakalla, qizim”lasam, xursand bo‘lib ketar, ko‘zlari pirpirab, o‘rindiqdan bir turib, o‘tirardi.

– Sen bo‘lmasang men bularni kechgacha ham tugib bo‘lmasdim, katta yordam berding, – deyman unga.

– Rostdanmi, xolajon? Qishloqdagi buvim ham sizdek maqtardilar mani, – xayolchan quvonadi u.

– Ha, rostdan, qizim. Judayam chaqqon va epli qiz ekansan.

– Manam oyimga yordam bergim keladi, lekin unamaydilar, ukangga qara, deydilar faqat. Unga qarash qiyin judayam.

Chuchvaralarni qozonga solib bo‘lgach, “Ertak aytib beraymi?” deyman unga.

– Ha, ha! – o‘rnida chaqqongina sakrashga tushadi u. – Siz rostdanam buvimga o‘xsharkansiz, buvim ko‘p ertak aytib berardilar, eshitib maza qilardim. Oyim aytmaydilar, charchab, uxlab qoladilar doim.

– Aytib beraman, faqat bir shartim bor, ertagimda ikkita qiz bor, biri aqlli, biri aqlsiz. Sen aqllisiga o‘xshashga va’da berasan.

Boshini irg‘ab tasdiq ishorasini qilgach, uning onasi bilan suhbatimizdan olgan xulosam va rejamga binoan “Zumrad va Qimmat”ni aytib berdim, faqat sal o‘zgartirib. Ya’ni, Zumrad aqlli va ziyrakligi, so‘raganini onasi bajarmasa qaytib so‘ramasligi, “xo‘p bo‘ladi” deyishi, ana shu fazilatlari bois sehrgar kampir uni qimmatbaho libos va taqinchoqlar to‘ldirilgan sandiq bilan siylagani, Qimmat esa uning aksi ekani, so‘raganini onasi qilmasa kechgacha yig‘lab, xarxasha qilaverishi, buning evaziga sehrgar kampir ajdarho solingan sandiqni sovg‘a qilgani, vahshiy uni yutib yuborgani, o‘sha zararkunanda hozir Qimmatga o‘xshagan qizlarni izlab yurgani, Zumradlarga zarar yetkazmasligini ta’kidlab, ertagimni yakunladim.

– Ovqatim qo‘ling tekkani uchun biram shirin bo‘libdi-ki, – ko‘zimni xiyol yumib, boshimni chayqatib deyman unga ovqatlanayotib.

Xursandligini ko‘rsangiz. So‘ng faromushroq bo‘lib so‘raydi:

– Xolajon, rostdan ham Qimmatxo‘r ilonlar bormi?

– Albatta, qizim.

– Man endi oyimdan tuflimni obering, deb bir martagina so‘rayman (ko‘rsatgich barmoqchani ko‘rsatadi), yo‘q, desalar, “xo‘p bo‘ladi, oyijon”, deyman.

– Barakalla, qizim! Yana biror nimani xohlasang, bir martagina so‘ra, xo‘pmi?

– Xo‘p bo‘ladi!

Ikkimiz ovqatlanish so‘ngida dasturxonga to‘kilgan ushoqlarni terib-terib yedik-da, ne’matlarimizga shukr qilib, yuzimizga fotiha tortdik. Birgalashib idish-tovoqlarni yuvdik. So‘ng mitti yordamchimning oyisiga ham kosachada taom olib tushdik.

Ammo negadir ertasi, indin va keyingi kunlar ham o‘tdiki, ularning ovozi chiqmadi. Ko‘chib ketishganga yo‘ydim.

Adashgan ekanman, kechagina ishdan qaytishda yonbosh kafeni yonidan o‘tayotsam bo‘ychasidan baland supurgi bilan yo‘laklarni tozalayotgan qizaloqqa ko‘zim tushdi. Qarasam, o‘sha “Zumrad”im. Ishiga berilib ketganidan atrofga qaramas, o‘ziga o‘zi so‘zlardi: “Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, Zumrad bilan Qimmat bo‘lgan ekan. Zumrad aqlli, odobli, so‘raganini oyisi bermasa, qaytib so‘ramaskan. Qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib, mana bunday egilib, (supurgiga tayanib bukildi) “xo‘p bo‘ladi, oyijon”, derkan...”

**Nurxon ELMIRZAYEVA**

TILBILIM

# QO‘RAMTA



**Ba’zi shevalarda: “Qo‘ramtani qo‘zg‘ash” degan ibora bor – unutila boshlagan, sovigan janjal yoki bahs-munozarani qaytadan qo‘zg‘ash ma’nosida aytiladi. Ammo “qo‘ramta”ning o‘zi nima?**

**“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “qo‘ramta” so‘ziga shunday ta’rif berilgan: “qo‘ramta – (tarixiy) kamon o‘qlari solib, osib yuriladigan maxsus xalta”. “Этимологический словар тюркских языков” lug‘atida ham “qo‘ramta”ga berilgan izoh shunday. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, Ergash Jumanbulbul o‘g‘li kabi baxshilar aytgan dostonlarda ham “qo‘ramta” shu ma’noda ishlatilgan.**

“Devonu lug‘otit-turk”da bu jihozning nomi *“qo‘ramta”* emas, *“qurman”*, Ergash Fozilovning XIV asr Xorazm yodgorliklari lug‘atida – *“qurban”* shaklida berilgan. Mahmud Koshg‘ariy *“qurman”* so‘zi yasalishini: *“belga kamar bog‘la so‘zidan olingan”*, deb tushuntiradi. Bu izohni *“qo‘ramta”*ga ham tatbiq etish mumkin. Darhaqiqat, qadimgi turkiyda *“qo‘r”* so‘zi – *“belbog‘”, “aylana”, “o‘tovni aylantirib bog‘lanadigan tasma”* kabi ma’nolarni bildirgan. O‘q-yoy solinadigan xalta – qurman yoki qo‘ramtaning ham bel va yelkaga bog‘lanadigan bog‘lari bo‘lgani uchun shunday atalgan. Hozirgi tilimizdagi *“qurshov”, “qurshamoq”* fe’li ham shu o‘zakdan. Ammo *“o‘q-yoy xaltasi”* ma’nosidagi *“qo‘ramta”*ning – *“qo‘ramtani qo‘zg‘ash”* iborasiga aloqasi bormi?

“Mo‘g‘ullarning sirli tarixi” asarida mazkur jihoz qurman yoki qo‘ramta emas, *“qo‘r” (“qor”)* deb ataladi. Asarning 189-paragrafida Nayman xoni Tayangxon aytadi: “Shimol tomonda notavon, bechora mo‘g‘ulchalar bor emish. Ular go‘yoki o‘zlarining QO‘Rlari bilan O‘ngxonni qo‘rqitishibdi”. Shundan so‘ng Tayangxon mo‘g‘ullarga qarshi urushni rejalaydi. Buning xabarini Chingizxonga: “Nayman xoni Tayangxon kelib sening qo‘ringni tortib olmoqchi”, deb yetkazishadi. Bu xabarga Chingizxonning ukasi Bilgutay no‘yon shunday munosabat bildiradi: “Agar tirik holimda mendan qo‘rni tortib olishsa, yashashning nima keragi bor? Navkar uchun jangda o‘lib, qo‘r va o‘q-yoyi uning suyaklari bilan yonma-yon qo‘yilishi sharaf emasmi?” Ko‘rinib turibdiki, bu matnda “qo‘r” so‘zi ramziy ma’noda: “O‘ngxonni qo‘r bilan qo‘rqitibdi”, deganda – O‘ngxonning Chingizxondan mag‘lub bo‘lib qochishi, “qo‘rni tortib olish” iborasida – “bosib olib, qulga aylantirish, qurolsizlantirish” ma’nolari ko‘zda tutilgan. Turli davrlarda: *qurman, qurban, qo‘r, sadoq (sag‘daq), qo‘ramsaq, qo‘rluq, qo‘ramta* va hokazo nomlar bilan atalgan bu jihoz ko‘chma ma’noda: kuch-qudrat, sha’n, g‘urur ramzi ham hisoblangan.

Keyinchalik bu jihoz iste’moldan chiqsa-da, bizningcha, uning nomi va unga bog‘liq ramzlar xalq xotirasida saqlanib qolgan. Ma’lumki, turkiyda *“qo‘r” (“qur”)*ga shakldosh (omonim) boshqa o‘zak-so‘zlar ham bor. Aytaylik, boshqa bir *“qo‘r”*dan: *“qo‘rimoq”, “qo‘riqchi”, “qo‘rg‘on”, “qo‘ra”* kabi so‘zlar hosil bo‘lgan bo‘lsa; *“qo‘r”* deganda yana: *“cho‘g‘”, “chala uchgan cho‘g‘”, “qalb qo‘ri”* kabi ma’nolarni ham anglaymiz. Bizningcha, *“qo‘ramta”* shakli dastlab sadoq ma’nosida qo‘llangan bo‘lsa, keyinchalik bu so‘z boshqa ma’nodagi *“qo‘r”* o‘zaklariga ham ko‘chgan.

Aytaylik, qozoq tilida ham mavjud bo‘lgan *“qo‘ramta”* so‘ziga qozog‘istonlik tilshunos Qaydar Abduali shunday izoh keltiradi: “qor qalin yog‘ib, qish uzoq cho‘zilgan yili, odatda, uyur-uyur bo‘lib yuradigan arxarlar qo‘ralanib, birlashib bir tabunga aylanadi, buni ovchilar qo‘ramta deb ataydi”. Boshqa bir qozoq adibi *“qo‘ramta”*ni *“yig‘ilish”, “qurultoy”* ma’nosida qo‘llaydi.

Ba’zi o‘zbek shevalarida esa *“qo‘ramta” – “chala o‘chgan cho‘g‘”, “qurum”* ma’nolarida tushuniladi. Ammo “qo‘ramta aynan nima?” degan savolga men bilan suhbatdosh bo‘lganlar bir xil javob qilishmadi: kimdir qo‘ramta deganda chala o‘chgan cho‘g‘ni, kimdir qurumni (qurumta), kimdir cho‘g‘ betidagi kulni tushunadi. Qo‘ramta haqidagi bunday mavhum tasavvur ilgari u boshqa ma’no bildirgan, degan farazga olib keladi.

Qashqadaryolik yozuvchi Ne’mat Arslon bir hikoyasida bu so‘zni “chala o‘chgan cho‘g‘” ma’nosida qo‘llagan: “Har kun qo‘ramtaga ko‘mib yoki qaynatib, ishi shoshilinch paytda qovurib yeydigan tuxumini o‘ylarkan, folga borish kerak, degan fikri qat’iylashdi”.

O‘zbek xalq dostonlarida: *“qo‘ramtaga qo‘l soldi”*, – iborasi *“urushga hozirlandi”*, ma’nosiga ega. *“Qo‘ramtani qo‘zg‘ash”* deganda esa – o‘chayotgan cho‘g‘ni qayta alangalatish, ko‘chma ma’noda: eski janjalni qayta qo‘zg‘ash tushuniladi. E’tibor qilinsa, yuqorida keltirilgan barcha iboralarda qo‘ramta urush, janjal bilan bog‘liq ravishda qo‘llanilgan. Shu bois ular o‘rtasida umumiylik borday tuyuladi.


**Abduvohid HAYIT**

TARMOQLARDA NIMA GAP?

# XIJOLATPAZLIK VA MAS’ULIYAT

**Pedagog bo‘lganim bois, viloyatdagi aksar madaniy-ma’rifiy tadbirlarda qatnashaman. Ana o‘sha yig‘inlarda meni bir savol qiynaydi: biz qachongacha ajdodlarimiz qoldirgan ilmiy-adabiy meros va ular zabt etgan marralar bilan maqtanib yashaymiz?!**

**Qaysi tadbirga bormang shu gap: biz falonchi va falonchilarning avlodimiz! Ajdodlarimiz undoq qilgan, bundoq qilgan deb ko‘krakka urishlar, falonchi bizning bobomizni tortib olmoqchi, deb jazavaga tushishlar.**



Gapim noo‘rin bo‘lsa ma’zur tutgaysiz, ammo bugun biz o‘zimizni merosxo‘r sanab, ko‘ksimizni kerib maqtanayotgan o‘sha bobolarimiz qiyin shart-sharoitda yashashiga qaramay, o‘zlari mustaqil izlanib, o‘qib-o‘rganib biz faxr qilayotgan ilm-u irfon cho‘qqilarini zabt etishgan. Ularga hech kim topshiriq yoki ko‘rsatma bermagan.

Shunday ekan, biz ham bugunning egalari o‘laroq ertangi avlodlarimiz faxr etishi mumkin bo‘lgan ixtirolar-u ilm-fan yangiliklariga qo‘l uraylik. Vaholanki, ajdodlarimizga munosib avlod bo‘lolmayotgan ekanmiz, hech yo‘q kelgusi avlodlar oldida mas’uliyatni his qilaylik.

Farg‘ona viloyati pedagogik mahorat markazida faoliyat olib borayotgan hamkasblarimga va markazda malaka oshirayotgan o‘qituvchilarga ana shu hayotiy haqiqatni bot-bot takrorlab turaman. Quvonarlisi, ular bilan fikrimiz bir joydan chiqib, gapimiz gapimizga ulanib ketaveradi...

Ma’lumot uchun, hozirda Farg‘ona viloyatining maktab tizimida 56 mingdan ortiq pedagog faoliyat olib borayotir. Viloyat pedagogik mahorat markazi bir vaqtda 1200 nafar tinglovchini qayta tayyorlash va o‘qitish imkoniyatini shakllantirgan. Sayyor kurslarimizda esa 1500 nafardan ziyod o‘qituvchilar o‘z malakasini oshirishga erishdi.

Markazdagi hamkasblarim ham barcha islohotlar avvalo ta’limdan boshlanishini urg‘ulab, hozirgi pedagoglar oldida bugunning Avloniysiga aylanib, sohada tashabbus va islohotlarga qo‘l urmoq vazifasi turganini alohida ta’kidlashadi. Jamoamiz bilan ana shu maqsad yo‘lida hamjihat harakat qilayotirmiz.

To‘g‘ri, ajdodlar merosini targ‘ib qilish lozim. Lekin oltin o‘rtalikni tutgan holda bobolar amalga oshirgan ishlar bilan maqtanishda me’yorni bilgan ma’qul.

Topqir xalqimizda: “Birovning tahoratiga namoz o‘qima”, degan pand bor. Shu ma’noda, bugungi yoshlarimizning o‘z vazifalari, missiyalari, amalga oshirilishi lozim bo‘lgan yumushlari bisyor. Biz ana shu mas’uliyatni unutmasligimiz shart..

**Maftuna ODILXO‘JAYEVA,**
*Facebook*

Jadid
adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Muassislar:

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

RESPUBLIKA MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT MARKAZI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI

MILLIY MASS-MEDIANI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI

“SHAHIDLAR XOTIRASI” JAMOAT FONDI

**Bosh muharrir:**
Iqbol Mirzo

**Mas’ul kotib:**
Shuhrat Azizov

**Navbatchi muharrir:**
Dilmurod Do‘stbekov

**Sahifalovchilar:**
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva

Muallif fikri tahririyat fikri bilan mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi..

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Kirill yozuvidagi adadi – 7 559
Lotin yozuvidagi adadi – 12 551
Media kuzatuvchilar – 19 894
Buyurtma: G – 140.
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko‘rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6



**Manzilimiz:**
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko‘chasi, 69-uy
**Telefonlar:**
Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

**“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.**
**Bosmaxona manzili:**
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 22:00
Sotuvda narxi erkin.

www.jadid.uz